

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

***“JINOYAT HUQUQI VA KRIMINOLOGIYA”
KAFEDRASI***

***“Jazoni yengilrog`i bilan almashtirishning o`ziga xos xususiyatlari”
mavzusida yozilgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 4-kurs “Jinoyat
huquqiy faoliyat” yo`nalishi
1-guruh talabasi

Ashurov Abdumutal Solijon o`g`li

Ilmiy rahbar: “Jinoyat huquqi va
kriminologiya” kafedrası o`qituvchisi

***Karimjonov Muhammadamin
Muhammadalievich***

Toshkent-2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. JAZONI YENGILROG‘I BILAN ALMASHTIRISH INSTITUTIGA UMUMIY TAVSIF	
1.1 Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish tushunchasi va uning jazodan ozod qilishning bir turi sifatida.....	7
1.2 O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutining tarixiy rivojlanishi jarayoni.....	12
II BOB. JAZONI YENGILROG‘I BILAN ALMASHTIRISH ASOSLARI VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	
2.1. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutini qo‘llash asoslari.....	22
2.2 Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutini qo‘llash tartibi va uning jazodan ozod qilishning boshqa turlaridan farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlari.....	38
III BOB. JAZONI YENGILROG‘I BILAN ALMASHTIRISH INSTITUTINING YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	
3.1. Xorijiy davlatlarning jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish instituti borasida tajribasi.....	47
3.2 Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutining davlating jinoyat huquqiy siyosatni amalga oshirishdagi ahamiyati va uni samaradorligini oshirish masalalari.....	54
XULOSA.....	60
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.....	64

KIRISH

*“Eng avvalo, jazolashning repressiv,
ozodlikdan mahrum qilish hollarini
qisqartirish hisobiga qonunchilikning
adolat va insoniylik kabi tamoyillarining
kuchayishini va amalda qo‘llanishini
ta’minlashimiz zarur”¹.*

I.A.Karimov

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi va asoslanishi. Bugungi yuzaga kelgan obyektiv voqelik sobiq sho‘ro tuzumidan qolgan jazolash choralarni qo‘llashdan butunlay voz kechib, tarixiy milliy qadriyatlarimizga va jahon hamjamiyati e’tirof etgan insonparvarlik prinsiplariga tayangan holda, shaxslarning huquq va erkinliklarini huquqiy islohotlarni barcha jabhalarida ishonchli himoya qilishni taqozo etmoqda. “Og‘ir jazo, ayniqsa, fuqarolarni jamiyatdan ajratish bilan bog‘liq bo‘lgan jazolarning jinoyatchilikning oldini olishdagi ahamiyatini oshirib ko‘rsatish o‘rinsiz ekanligini hayotning o‘zi isbotlamoqda. Jinoyatchilikning oldini olish unga qarshi kurashish samaradorligi, jazoning og‘irligi va shafqatsizligiga emas, balki birinchi navbatda qonunni buzgan shaxs jazoning muqarrarligini nechog‘li anglashiga bog‘liq”², - deb ta’kidlaydi O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov. Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”³. Shu maqsadni amalga oshirish vositalardan biri hisoblanagan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish faqatgina odil fuqarolik jamiyati va demokratik davlat barpo etish sari borayotgan O‘zbekiston Respublikasida axloq tuzatish siyosatini, insonparvarlik siyosatining ifodasi bo‘libgina qolmasdan, shu bilan birga sudlanganlarni tezroq

¹ Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. // Xalq so‘zi. 2001-yil 30-avgust.

² Shu yerda.

³ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014. 13-modda.

tuzatish va ularni qayta tarbiyalashga qaratilgan muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, sud jazo tayinlashda har bir sudlanuvchining qilmishini va shaxsini alohida-alohida o'ziga xos xususiyatlarini qanchalik hisobga olmasin, uning jazoni o'tash davridagi axloqi, fe'l atvori, uni qayta tarbiyalash muddatini aniq belgilay olmaydi. Shuning uchun ham sud sudlangan shaxsning o'zini – o'zi tuzatish va qayta tarbiyalashga qaratilgan harakatlarni atroflicha rag'batlantirib, tayinlangan jinoiy jazodan muddatidan ilgari ozod bo'lish imkoniyatini yaratib beradi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutining davlatning jinoiy huquqiy siyosatini amalga oshirishda, mahkumlarni ijobiy xulq atvorini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etarkan biz bu institutni yanada chuqur o'rganib, uning yanada rivojlantirish masalalarini tadqiq qilish lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlar davlat va jamiyat hayotida yangi huquqiy negizni shakllantirish, fuqarolar huquq va erkinliklari hamda umumiy huquq-tartibotga izchil rioya qilish zaruratini yuzaga keltirdi. Bu jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi yangi siyosatni shakllantirishga sabab shuki, u o'z navbatida, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini nazariy jihatdan isbotlaydigan asosiy g'oyalar, vazifa va qoidalar tizimidan iborat ilmiy prinsiplarni yaratish hamda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatini amalga oshirishning boshqa yo'nalish va shakllariga asos bo'lgan jinoyat qonunlarining ishlab chiqilishini talab etadi.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti va uning nazariy va amaliy muammolari majmui tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini amalga oshirish asoslari va shartlarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyatlari, uni qo'llash asoslari va shartlari tadqiqot predmetiga kiradi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi jazoni yengilrog'i bilan almashtirish nazarda tutuvchi jinoiy huquqiy normalarni o'rganish va tadqiq qilish, ushbu normalarning rivojlanish tarixi, ular orqali ushbu

institutni qo'llovchi sudlar faoliyatidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarga berilgan takliflarni asoslab berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqodchi o'z oldiga quyidagi maqsadlarni qo'yadi:

- Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;
- Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish aslari va shartlarini o'rganish;
- Uning jazodan ozod qilishning boshqa turlaridan farq qiluvchi xususiyatlarini aniqlash;
- U aks ettirilgan jinoiy huquqiy normalarni yuridik tahlil qilish;
- Xorijiy mamlakatlarda jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini amalga oshirish asoslari va shartlarini tahlil qilish;

Bitiruv malakaviy ishining yozilish uslubi. Malaka ishini yozishda muallif bilishni qiyoslash, mantiqiy tahlil qilish, analiz va sintez qilish, tarixiy, sistematik va rasmiy yuridik metodlaridan keng foydalandi. Bundan tashqari mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon qilingan davlat va huquq sohasidagi fikr-mulohazalar va g'oyalar muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, nazariy va normativ asoslari. Bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan davlatimiz va xorij olimlari qator ilmiy ishlarni chop etganlar. Jumladan, M.H.Rustambaevning "O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom" darsligi, M. Usmonalievning "Jinoyat huquqi. Umumiy qism" darsligi, M.M.Mirzajonovning "Jinoyat huquqi. Umumiy qism" darsligi, M.Z.Muqimovning "Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari" monografiya kabi darslik, o'quv qo'llanmalari va ilmiy maqolalar atroflicha tahlil qilingan. Bundan tashqari, rus tilida ham ko'plab yuridik adabiyotlar chop etilgan.

Jazoning yengilrog'i bilan almashtirishni huquqiy jihatdan asoslantirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat

kodeksi, Jinoyat kodeksiga sharhlar, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Ijroiya Kodeksi, qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sud plenumi qarorlaridan foydalanildi. Bundan tashqari ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda internetdan olingan ma'lumotlardan va ilmiy maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundan iboratki, mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti, uni qo'llash shartlari va tartibini o'rganuvchi jinoyat, jinoyat protsessi, jinoyat ijroiya huquqi fani nazariyasini boyitishga muayyan darajada hissa qo'shadi.

Amaliy ahamiyati. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni takomillashtirish xususida bir qator amaliy takliflarda ifodalanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi tadqiq qilingan masalalar mohiyatidan kelib chiqib, kirish, uch bob, olti bo'lim, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

IBOB. JAZONI YENGILROG'I BILAN ALMASHTIRISH INSTITUTIGA

UMUMIY TAVSIF

1.1 Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tushunchasi va uning jazodan ozod qilishning bir turi sifatida

O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunida aks etgan insonparvarlik prinsipining yaqqol namoyondasi jazodan ozod qilish va uning turlaridan biri hisoblangan jazoni yengilrog'i institutida ham o'z ifodasini topgan.

“Zero, insonparvarlik, shubhasiz, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati konsepsiyaning asosiy g'oyasi bo'lib hisoblanadi”¹.

Insonparvarlik deganda insonni shaxs sifatida tan olinishi, uning qadriyatini hurmat qilish va farovonligini oshirib borishga intilishni ijtimoiy tarakkiyotning maqsadi kabi izohlaydigan axloqiy prinsipdir. Mazkur axloqiy prinsiplar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasidayoq qayd etilgan bo'lib, unda jamiyatni rivojlantirishning asosiy vazifasi sifatida insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilib olingan.

Mamlakatimiz Jinoyat qonuni jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo choralari belgilabgina qolmay, balki jazodan ozod qilish mumkin bo'lgan normalarni ham belgilaydi.

Jinoiy jazodan ozod qilish instituti O'zbekistonda tarixan qaror topgan bo'lib, jinoyat huquqi shakllangan davrdanoq uning ba'zi institutlari amalda qo'llanib kelgan. Ammo qonunda jinoiy jazodan ozod qilishning legal ta'rifi berilmagan, bunday ta'rif ilgari amalda bo'lgan Jinoyat qonunida ham berilmagan. Bu hol oldimizga mazkur institutning tavsifiy belgilarini aniqlab, unga ta'rif berish vazifasini qo'yadi.

Jinoiy jazodan ozod qilish deganda shaxsni qilmishi sudda mazmunan ko'rib chiqilib, ayblov hukmi chiqarilib, mahkumni jazo tayinlashdan yoki

¹ Пулатов Ю.С. О гуманизации условного осуждения в уголовном и уголовно-исполнительном законодательстве. // *Хуқуқ-Право-Law*. -2002.- №2.-С. 81-83.

tayinlangan jazoni o'tashdan, shuningdek o'tayotgan jazoni davom ettirishdan ozod qilish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan jazo choralarini bilan bir qatorda ushbu jazolardan ozod qilish mumkin bo'lgan normalarni ham belgilaydi.

“Jinoiy jazodan ozod qilish aybdor deb topilgan va maxkum deb elon qilingan shaxsga nisbatan jazoni qo'llashdan yoxud uning boshqa usul va vositalari jazo maqsadlariga erishuv imkoniyati mavjudligi xolatlarida jazoni o'tashni davom ettirishdan davlatni voz kechishidir.

Jazo maqsadi – bu davlat tomonidan jazoni qo'llash vositasida erishishga intilayotgan yakuniy natijadir”¹.

O'zbekiston Respublikasi JK ning 42-moddasining ikkinchi qismiga asosan jazodan ozod qilishning maqsadlaridan biri mahkumni axloqan tuzatish hisoblanadi. Shunga asoslanadigan bo'lsak, jinoyat qonunchiligining vazifalaridan biri fuqarolarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan, jazoning maqsadlaridan biri esa mahkumni axloqan tuzatishdan iborat ekan, jinoyat sodir qilgan, ammo hukm chiqarish yoki jazoni o'tash vaqtida shaxsning jamoat uchun xavflilik xususiyatini yo'qatgan, qilmishga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan bo'lsa bunday shaxsga nisbatan uni tarbiyalash va axloqni tuzatishning jinoiy jazo qo'llash orqali hal qilinishiga hojat qolmaydi. Bunday shaxslarga nisbatan sud Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazodan ozod qilishning biror turini ish holatlariga qarab qo'llash mumkin.

Jazodan ozod qilish va uning turlari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksining XIII bobida belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunga asosan jazodan ozod qilishning 8 ta turi mavjuddir. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Jazoni ijro qilish muddati o'tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish(69-modda);

¹ M.H.Rustambaev. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom. Umumiy qism. Darslik. “ILM ZIYO” nashriyot uyi. Toshkent – 2011. 12-bet

2. Shaxsning ijtimoiy xavfli xususiyatini yo‘qotish munosabati bilan uni jazodan ozod qilish(70-modda);
3. Aybdorning o‘z qilmishiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish(71-modda);
4. Shartli hukm qilish(72-modda);
5. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod etish(73-modda);
6. Jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish(74-modda);
7. Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo‘qotish oqibatida jazodan ozod qilish(75-modda);
8. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish(76-modda).

Jazodan ozod qilish institutini qo‘llash asoslari va uning huquqiy oqibatlarini tahlil qilib jazodan ozod qilishni quyidagi ikki turga bo‘lishimiz mumkin.

1. Jazodan to‘la ozod qilish;
2. Jazodan qisman ozod qilishdir

Jazodan to‘la ozod qilishda sud ayblov hukmi chiqaradi va jazoni belgilab, belgilangan jazoni ijro etmaslik to‘g‘risida hukm qiladi.

Mahkum jazodan qisman ozod qilinganda u sud belgilagan jazoning faqat bir qismini o‘taydi va uning o‘talmagan qismidan ozod qilinadi yoxud mazkur qism yengilroq jazo bilan almashtiriladi.

Jazodan to‘la ozod qilish turlariga quyidagilar kiradi:

1. Jazoni ijro qilish muddati o‘tib ketganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish
2. Shaxsning ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotish munosabati bilan uni jazodan ozod qilish;
3. Aybdorning aybiga chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish;
4. Shartli hukm qilish.

Jazodan qisman ozod qilish turlariga esa quyidagilar kiradi:

1. Muddatidan ilgari shartli ozod etish;

2. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish.

Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish va amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish esa ularning qo'llanish vaqti va oqibatlariga qarab ham jazodan to'la ozod qilish, ham jazodan qisman ozod qilish bo'lishi mumkin.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jazodan ozod qilishning bir turi bo'lib, shaxsga nisbatan tayinlangan jazo turiga nisbatan yengilroq turdagi jazo bilan almashtirishdan iboratdir. Uning huquqiy asosi yuqorida keltirilganidek, Jinoyat kodeksining 74-moddasida belgilangan. Ushbu norma jinoyat huquqiy norma rag'batlantiruvchi huquqiy norma hisoblanadi. "Jinoiy huquqiy rag'batlantiruvchi norma bilan tartibga solinadigan ma'qullanuvchi ijobiy xatti-harakatni xususiyati shundaki, u jamiyat, davlat uchun ham , shaxsning o'zi uchun ham ijtimoiy jihatdan ahamiyatlidir. Chunki, u jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, jazodan to'liq yoki qisman ozod qilish, jazoni yengillashtirish va boshqa ayrim ijobiy huquqiy choralarini qo'llash imkonini beruvchi muayyan undovchi(rag'batlantiruvchi) omillar bo'lgan turli xil ijobiy huquqiy oqibatlar kelib chiqishiga imkon beruvchi asosdir"¹.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish – jazoni o'tash davrida uni individallashtirish prinsipini amalga oshirishning mustaqil shakli bo'lib, mahkum sud tomonidan tayinlangan jazoning o'talмай qolgan qismi bilan birga boshqa bir yengilroq jazoni o'tashi kerak bo'ladi.

„Jazoni o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirishni huquqiy tabiatini ko'rib chiqishda shuni qayd etish lozimki, sud tomonidan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llashning asosiy maqsadi mahkumni ijobiy xulq-atvorini rag'batlantirishdir. Ushbu ijtimoiy, huquqiy mazmuni hukm qilingan shaxsning ijobiy xulq-atvorini rag'batlantirish orqali jazoni qo'llashdan ko'zlangan maqsadlarning samaradorligini oshirishdir"².

¹ R.R.Shakurov. Ijobiy xatti-harakatni jinoiy huquqiy rag'batlantirishning ijtimoiy shartlanganligi va mohiyati. O'quv qo'llanma. IIV akademiyasi. Toshkent-2006. 13-bet.

² Нурмимев М.М. Заменяющие наказания по российскому уголовному праву: Диссертация. канд. юрид. наук. – Казань. 2005 г. – С.133.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish o'zining qo'llanish asoslari va shartlari hamda huquqiy oqibatlarini bilan boshqa jazodan ozod qilishning turlaridan ajralib turadi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llagan holda jazodan ozod qilishda shaxsni unga tayinlangan jazodan ozod qilishni nisbiy tushunish kerak. Jazodan ozod qilishning boshqa turlaridan farqli ravishda jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda mahkumga tayinlangan jazodan unga nisbatan yengilroq bo'lgan boshqa jazo tayinlash orqali ozod etiladi. Ya'ni, bunda mahkum unga avval tayinlangan muayyan jinoiy jazodan ozod etiladi, lekin unga oldingi jazoga nisbatan uning o'talmay qolgan qismi boshqa jinoiy jazo tayinlash orqali ozod etiladi. Bunda mahkum jinoiy jazodan to'liq ozod etilmaydi, balki unga tayinlangan jazo boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi.

Jinoyat kodeksida jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning qo'llash asoslari va shartlari mahkumga jazoning maqsadlariga boshqa yengilroq jazo qo'llash orqali ham erishish mumkinligini hisobga olingan holda belgilangan.

Ayblov mahkumni jazolash maqsadida belgilanmaydi va ijro etilmaydi, balki uni tarbiyalash, uning jinoiy faoliyatini davom ettirishga to'sqinlik qilish, shuningdek mahkum va boshqa shaxslar tomonidan yangi jinoyatlar sodir qilinishini oldini olish maqsadida belgilanadi. Shu bois jazo belgilash va uni ijro etish agar muayyan holatda davlat ixtiyoridagi boshqa ta'sir choralari orqali ko'zlangan maqsadlarga erishish imkonini bermaganda zarur deb topiladi. Agar ko'zlangan maqsadlarga jinoiy jazoni qo'llamasdan ham erishilsa, boshqa uslub, usul va vositalar bilan ijro qilish maqsadga muvofiq bo'lmaydi, kam samara beradi. Jazoning ushbu maqsadini amalga oshirish uchun shaxsga tayinlangan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirib ham ko'zlangan maqsadga erishilsa jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llaniladi.

1.2 O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutining tarixiy rivojlanishi jarayoni

“Jinoyat qonuni – tarixiy o‘zgaruvchan kategoriya, chunki ijtimoiy ishlab chiqarishning uzluksiz ravishda rivojlanishi, ishlab chiqarish va boshqa ijtimoiy munosabatlarning doimiy ravishda mukammalashib, rivojlanib borishi, jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va g‘oyaviy jihatdan o‘zgarib borishi, o‘z navbatida, jinoyat qonunchiligida o‘zgarishlar yuz berishiga olib keladi”¹.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish instituti 1926-yil 16-iyunda O‘zbekiston SSR Sovetlar MIK Prezidiumining “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Jinoyat kodeksini amalga kiritish to‘g‘risida”gi 40-sonli qarori asosida qabul qilingan O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Jinoyat kodeksida ham belgilangan edi. Ushbu kodeksning to‘rtinchi bo‘limi “Mahkum sud tomonidan sotsial chorasidan muddati bitmasdan ilgari ozod qilish shartlari to‘g‘risida” deb nomlangan bo‘lib, uning 54-55-moddalarida jazodan ozod qilish jazodan o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish deb atalib, uning ikki turi- sotsial mudofaa chorasini bundan keyin o‘tashdan ozod qilish yoki sud tomonidan belgilangan sotsial mudofaa chorasini yengilroq jazo bilan almashtirish turlarini qo‘llash shartlari va asoslari belgilangan edi.

“Jinoyat qonunchiligi tarixida amaldagi Jinoyat kodeksi qabul qilingan kodekslarning uchinchisi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Jinoyat kodeksi 1926-yil 16-iyunda qabul qilingan va 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritilgan. Ushbu kodeks o‘sha vaqtdagi RSFSR kodeksiga asoslangan holda tuzilgan bo‘lib, unda o‘z vaqtida insonparvarlik g‘oyalariga zid ba’zi bir normalar mavjud bo‘lib, u qonli repressiyalarni o‘tkazishda “huquqiy asos” bo‘lganligi bilan xarakterlanadi”².

“Muddatli sotsial mudofaa chorasiga hukm etilgan va o‘zlarining tuzalganliklarini ko‘rsatgan shaxslarga sud tomonidan belgilangan sotsial mudofaa

¹ Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. –Toshkent: Yungi asr avlodi, 2005. 37-b.

² Muqimova M.Z. Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari. Monografiya. Samarqand: SamDU. 2009. 9-bet.

chorasi muddatining uchdan bir qismi to'ldirganidan so'ng muddatidan ilgari shartli ozod qilinish tatbiq qilinishi mumkin.

Muddatidan ilgari shartli ozod qilish – yo sotsial mudofaa chorasini bundan keyin o'tashdan ozod qilish yoki sud tomonidan belgilangan sotsial mudofaa chorasini yengilroq jazo bilan almashtirishdan iborat bo'ladi.

Ozodlikdan mahrum qilishni axloq tuzatish mehnat lagerlariga tortuvchilarga nisbatan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish mahkumni o'sha mehnat rayonida ozodlikdan mahrum qilishni qolgan muddatida o'rnatish uchun ko'chirish formasida tatbiq qilinadi.

Muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni tatbiq etish tartibi SSR Ittifoqining sud muassalari tomonidan hukm qilinuvchilarga nisbatan SSR Ittifoq qonunlari bilan belgilanadi, O'zSSR, boshqa soyuzdosh yoki avtonom respublikalarning sud muassasalari tomonidan hukm qilinuvchilarga nisbatan nisbatan O'zSSR ning Axloq, Tuzatish-Mehnat va Jinoyat Protsessual Kodeksida belgilangan qoidalar bilan belgilanadi.

Ozodlikdan mahrum qilishni axloq tuzatish mehnat lagerlariga tortayotganlarni muddatidan ilgari shartli ozod qilish tartibi, shu lagerlar to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

55. Agar muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinuvchi muddatniing o'talmagan qismi ichida ilgarigi jinoyatdan og'irligi kam bo'lmagan yangi jinoyat sodir qilsa, u muddatning o'talmagan qismi yangi og'irligi kam bo'lmagan jinoyat uchun sud tomonidan tayinlangan jazoga qo'shiladi. Agar sotsial mudofaa chorasi sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilish belgilangan bo'lsa, ozodlikdan mahrum qilishni umumiy muddati o'n yildan ortiq bo'lishi mumkin emas”¹.

Ushbu kodeksda jinoiy jazolar sotsial mudofaa chorasi deb yuritilgan. O'zbekiston SSRning 1926-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari institutini amaldagi JKda nazarda

¹ O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Jinoyat Kodeksi. 1926-yil 16-iyunda O'zbekiston SSR Sovetlar MIK Prezidumining “O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Jinoyat Kodeksini amalga kirgizish to'g'risida”gi 40-sonli qarori asosida qabul qilingan. 54-55-moddalari.

tutilgan *jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini farqlarini quyidagilarda ko'rsatishimiz mumkin.*

1) O'zbekiston SSRning 1926 - yilgi JKda o'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishning bir turi sifatida ko'rsatilgan. Amaldagi JKda esa ular jazodan ozod qilishning alohida-alohida turlari hisoblanadi.

2) Almashtirilishi mumkin bo'lgan jazolarda. O'zbekiston SSRning 1926-yilgi JKda qaysi jazolar almashtirilishi aniq ko'rsatilmagan. Amaldagi JKda esa faqatgina axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari boshqa yengilroq jazoga almashtirilishi mumkin.

3) Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni amalda o'talishi lozim bo'lgan muddatlarda. O'zbekiston SSRning 1926 - yilgi JKda bu muddatlar har qanday jinoyat uchun tayinlangan har qanday mudofaa sotsial chorasining kamida uchdan birini tashkil etgan. Amaldagi JKda esa bu muddatlar jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va alohida jinoyatlar uchun tayinlangan jazolarga nisbatan har xil muddatlar belgilangan.

4) Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin shaxslar doirasi. O'zbekiston SSRning 1926-yilgi JKda jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar toifasi belgilanmagan edi. Amaldagi jinoyat qonunida esa jazoni yengilrogi bilan almashtirilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi sanab o'tilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston SSRning 1926-yilgi Jinoyat kodeksida voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash alohida tartibda ko'rsatilmagaligi bilan ajralib turadi. Amaldagi jinoyat qonunida esa voyaga yetmaganlarning jismoniy va aqliy rivojlanish darajasi hisobga olinib, JKning VI bo'limida voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan. Xususan, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazodan ozod qilishning jazoni yengilrog'i bilan almashtirish turini qo'llash asoslari va tartibi alohida normada JKning 90-moddasida belgilangan.

1959-yil 21-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Jinoyat kodeksida quyidagi jazodan ozod qilish turlari mavjud bo‘lgan:

- 1) Shartli ravishda hukm qilish Jinoyat kodeksini(43-moddasi);
- 2) Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish(50-modda);
- 3) Ozodlikdan mahrum etish joylaridan shartli ravishda ozod qilish, mahkumni mehnatga majburan jalb qilish(50²-modda);
- 4) O‘n sakkiz yoshga yetmasdan jinoyat qilgan shaxslarni muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va ularni jazosini yengilroq jazo bilan almashtirish(51-modda);
- 5) Jazoni o‘tashdan ozod qilish(52-modda).

Shuni ta’kidlash lozimki, 1959-yildagi Jinoyat kodeksining to‘rtinchi bo‘limi “Jazo tayinlash va jazodan ozod qilish to‘g‘risida” deb nomlanib, ushbu bo‘limda jazo tayinlash, javobgarlikdan ozod qilish va jazodan ozod qilish bir-biriga aralashib ketgan va ularga aniqlik yetishmaydi.

Jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish instituti 1959-yil 21-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Jinoyat kodeksininig 50-moddasida jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish va jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish jazodan ozod qilishning turlari sifatida mustahkamlangan.

“Agar ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlariga, surgunga, badarg‘a qilishga yoki intizomiy batalyonga yuborishga hukm qilingan shaxs namunali axloqi va mehnatga halol munosabati bilan tuzalganligini isbotlasa tayinlangan jazoning kamida yarmini amalda o‘tagandan so‘ng uni sud tayinlangan jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki o‘talmagan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish mumkin. Shu bilan birga sudlangan shaxs surgun, badarg‘a va ma’lum mansabni egallash yoki ma’lum ish bilan shug‘ullanish huquqidan mahrum qilish yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilish kabi qo‘shimcha jazolardan ham ozod qilinishi mumkin.

Quyidagi jinoyatlar uchun hukm qilingan shaxslarga jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishni yoki o'talmagan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirishni belgilangan jazoning kamida uchdan ikki qismi amalda o'tagandan so'nggina qo'llanish mumkin: davlatga qarshi alohida xavfli jinoyatlar(54-63-moddalar), banditizm(67-modda), ommaviy taribsizlik(69-modda), qalbaki pul yoki qimmatbaho qog'ozlar tayyorlash yoki sotish(77-modda), qasddan odam o'ldirish(80 va 81-moddalar), qasddan badanga og'ir shikast yetkazish(88-modda), nomusga tegish(94-modda ikkinchi qism), bosqinchilik qilish(116-modda "b" va "v" bandlari, 127-modda "b" va "v" bandlari), talonchilik qilish (115-modda "v" bandi va 126-modda "v" bandi), o'g'irlik(114-modda "v" bandi va 125-modda "v" bandi), o'zlashtirish yoki rastrata(117-modda "v" bandi) firibgarlik 119-modda "b" bandi), mansabni suiste'mol qilish yo'li bilan davlat yoki jamoat mulkini qonunsiz o'z mulki qilib qaratib olish(118-modda ikkinchi qism), boshliqqa nisbatan zo'rlik ishlatish(230-modda birinchi qism), shuningdek ashaddiy bezorilik uchun ikki marta sud bo'lganlar(204-modda ikkinchi qism).

Muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs jazoning o'talmagan qismi davomida ilgari qilgan jinoyat singari yoki undan yengil bo'lmagan jinoyat sodir qilsa, sud ushbu kodeksning 41-moddasida ko'rsatilgan tartibda jazo tayinlaydi.

Jazo muddatidan ilgari shartli ozod qilish va o'talmagan jazo qismini yengilroq jazo bilan almashtirish alohida xavfli retsidivistlarga qo'llanilmaydi(23-modda ikkinchi qism)"¹.

Yuqoridagi O'zbekiston SSRning 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari institutini amaldagi JKda nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini *farqlarini quyidagilarda ko'rsatishimiz mumkin.*

1) Almashtirilishi mumkin bo'lgan jazolarda. O'zbekiston SSRning 1959-yilgi JKda ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlariga, surgunga, badarg'a qilishga yoki intizomiy batalyonga yuborish jazolari boshqa yengilroq jazo bilan

¹ O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Beshinchi chaqiriq O'zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida 1959-yil 21-mayda qabul qilingan. 50-moddasi.

almashtirilishi mumkin. Amaldagi JKda esa faqatgina axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolari boshqa yengilroq jazoga almashtirilishi mumkin.

2) Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni amalda o‘talishi lozim bo‘lgan muddatlarda. O‘zbekiston SSRning 1959-yilgi JKda bu muddatlar amaldagi JKda nazarda tutilgan muddatlardan ko‘ra ko‘proq muddatni tashkil etgan. Ilgarigi JKda eng kam muddat tayinlangan jazoning kamida yarmini tashkil etgan. Bu farq ham amaldagi jinoyat qonunimizning liberal ruhda ekanligini, insonparvar tamoyillarni aks ettirganligini tasdiqlaydi.

3) Jazoni yengilrog‘i bilan almashirish qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan Shaxslar doirasi. O‘zbekiston SSRning 1959-yilgi JKda jazoni yengilrog‘i bilan almashtirilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar sifatida alohida xavfli retsidivistlarga belgilangan edi. Amaldagi jinoyat qonunida esa jazoni yengilrog‘i bilan almashtirilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar doirasi ko‘proqni tashkil etadi. Xususan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish quyidagi shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga;

b) o‘ta xavfli retsidivistga;

v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga;

g) javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish, o‘n to‘rt yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo‘rluk ishlatib, jinsiy ehtiyojni g‘ayritabiiy usulda qondirish, O‘zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg‘in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo‘lgan material va uskunalarni, kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi.

4) O‘zbekiston SSRning 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat kodeksida jazoning qolgan qismini yengilroq‘i bilan almashtirish alohida normada belgilanmasdan, muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish bilan birgalikda ushbu kodeksning 50-moddasida berilgan edi. Amaldagi jinoyat qonunida esa ular alohida-alohida moddalarda berilgan(JKning 73-moddasida jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, 74-moddasida jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish belgilangan. Ularni alohida moddalarda berilganligi asoslidir. Chunki bu har ularning qo‘llanish tartibi va oqibatlari har xildir.

Buni quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

a) almashtiradigan yoki ozod qilinadigan jinoiy jazolarda. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda shaxsga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilsa, Jazoni yengilroq‘i bilan almashtirishda esa faqatgina ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari Jinoyat kodeksining 43-moddasiga asosan ulardan yengilroq turdagi jazo turi bilan almashtiriladi.

b) Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda jazolarning o‘talmagan muddati uchun shaxsga nisbatan Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan biron bir chora tayinlanmasdan ozod qilinsa, Jazoni yengilroq‘i bilan almashtirishda esa Jinoyat kodeksining ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari Jinoyat kodeksining 43-moddasiga asosan ulardan yengilroq turdagi jazo turi bilan almashtiriladi.

v)sudlanganlik holatining tugallanishida. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning sudlanganlik muddati jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan kundan boshlansa, Jazoni yengilroq‘i bilan almashtirilgan shaxsning sudlanganlik muddati yengilroq jazo bilan almashtirilgan jazo muddati tamom bo‘lgandan keyin boshlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 1994-yil 22-sentyabrda qabul qilingan bo‘lib, u jazzoni yengilroq‘i bilan almashtirishni oldingi jinoyat qonunlaridan keskin farq qiluvchi jihatlarni o‘rnatdi.

Mamlakatimizda jinoyat qonunining tubdan liberallashtirilishi ayniqsa ***2001-yilda qabul qilingan “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat, Jinoyat Protsessual Kodekslari hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni*** asosida oldinga katta qadam tashlashga erishdi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi “Jinoiy jazo choralarini liberallashtirish munosabati bilan Jinoyat kodeksi, JPK va MJTKlarga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekiston Respublikasining jinoyat va jazo to‘g‘risidagi qonunchiligini takomillashtirish, uni liberallashtirish borasida fundametal asos bo‘lib xizmat qiladi¹.

Ushbu qonun asosida JKga ko‘plab muhim o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi. Ular qatorida JKning 74-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishlar ham o‘rin olgan edi. Ushbu qonun natijasida jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llash uchun talab qilinadigan tayinlangan jazoni amalda o‘talishi lozim bo‘lgan muddatlar qisqartirildi. Ushbu farqni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

№	JKning avvalgi tahrir	JKning o‘zgargan tahriri
1.	Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish, mahkum: a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini; b) og‘ir jinoyati uchun,	Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish mahkum: a) ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida to‘rt dan bir qismini; b) og‘ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonuni. 2001 yil 29 avgust.//Xalq so‘zi, 2001 yil 30 avgust.

shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilib, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini; v) o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi.	u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini; v) o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin. (2001 yil 29 avgust)
--	--

“Bu borada O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunini isloh qilish, uni liberallashtirish, hozirgi kun talabiga muvofiqlashtirish zarurati asosiy masalalardan biri sifatida namoyon bo‘ldi. Zero, jinoyat-huquqiy sohani liberallashtirishning bosh maqsadi – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning “Adolat – qonun ustuvorligida¹” deb nomlangan nutqida belgilab berilganidek, – inson omili bo‘lib, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi odil siyosati orqali adolat hamda qonun ustuvorligini ta’minlashdan iborat. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov tomonidan ilgari surilgan ushbu insonparvar g‘oyalar, o‘z navbatida, jinoiy javobgarlik, jazo tizimi va uning turlari, jinoyat

¹ Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. // Xalq so‘zi. 2001-yil 30-avgust.

uchun jazo tayinlash qoidalarini takomillashtirishga tanqidiy jihatdan yondashishga xizmat qilib, jazoning aniq turlari uchun oʻrnatilgan normalarni tubdan qayta koʻrib, isloh qilish va ularni takomillashtirishni taqozo etdi”³.

Ijtimoiy hayot rivojlangan sari, oʻzgarib borgan sari shunga mos ravishda huquqiy munosabatlar ham rivojlanib boradi. Jazoni yengilrogʻi bilan almashtirish ham shundan kelib chiqib hozirgi kunda amalda boʻlgan JKda aks etgan koʻrinishga kelgan.

³ Muqimova M.Z. Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari. Monografiya. Samarqand: SamDU. 2009. 5-bet.

2.1. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llash asoslari

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari va qo'llash shartlari deganda uni qo'llash uchun qanday holatlar mavjud bo'lishi va kim tomonidan, qancha muddatlarda amalga oshirilishi tushuniladi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash shartlari va tartibi quyidagi normativ huquqiy hujjatlarda belgilangan:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 74-moddasi va 90-moddasi (voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish);
- 2) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksining 536-moddasi
- 3) O'zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya Kodeksining 164-moddasi;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi Qarorlari.

Jinoyat kodeksining 74-moddasida belgilangan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash shartlarini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu shartlarni quyidagi to'rt guruhga jaratishimiz mumkin:

- 1. Almashtiriladigan jazo bilan bog'liq shartlar;***
- 2. Mahkumning xulq-atvori bilan bog'liq bilan shartlar;***
- 3. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun jazoning o'talishi bilan bog'liq bo'lgan muddatlar;***
- 4. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llaniladigan mahkumlar toifalariga qo'yilgan talablar.***

Ushbu uchchala shartning bir vaqtda va belgilangan me'yorlarda bo'lishi jazoni yengilrog'i bilan almashtirishga asos bo'ladi.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda mahkumga tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining o'talmay qolgan qismi ulardan yengilroq bo'lgan boshqa jinoiy jazolarga almashtirilishi mumkin. Bu qoidaga asosan faqat ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolarining o'talmay qolgan qismigina almashtiriladi. Ulardan boshqa jazolar almashtirilishi mumkin emas. Ushbu ikki jazo turining o'talmay qolgan qismi ulardan yengilroq bo'lgan boshqa jazolarga almashtiriladi. Ularndan yengilroq bo'lgan boshqa jazolarni aniqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 43-

moddasini ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Ushbu moddada jazo tizimi belgilangan bo‘lib, unda jinoiy jazolar yengilidan og‘iriga qarab joylashtirilgan.

Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin:

- a) jarima;
- b) muayyan huquqdan mahrum qilish;
- v) axloq tuzatish ishlari;
- g) xizmat bo‘yicha cheklash;
- d) qamoq;
- d¹)ozodlikni cheklash;
- e) intizomiy qismga jo‘natish;
- j) ozodlikdan mahrum qilish;
- z) umrbod ozodlikdan mahrum qilish”¹.

Ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari kabi jazolar Jinoyat kodeksining 43-moddasida nazarda tutilgan boshqa yengilroq jazolarga almashtirishni nazarda tutadi. Jinoyat kodeksining 43-moddasi mazmunidan kelib chiqib, ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlariga nisbatan almashtirish mumkin bo‘lgan yengilroq jazolar deb, qonun chiqaruvchi tomonidan quyiroqda joylashtirilgan jazolar tan olinadi. Ozodlikdan mahrum qilishni jarima (JK 44-moddasi), muayyan huquqdan mahrum qilish (JK 45-moddasi), axloq tuzatish ishlari (JK 46-moddasi), xizmat bo‘yicha cheklash (JK 47-moddasi), qamoq (JK 48-moddasi), ozodlikni cheklash(48¹-moddasi), intizomiy qismga jo‘natish (JK 49-moddasi) kabi jazolarga almashtirish mumkin. Axloq tuzatish ishlarini faqat jarima va muayyan huquqdan mahrum qilishga almashtirish mumkin.

“Jinoiy jazoning adolat va qonuniylik kafolati bo‘lib, o‘talgan muddatlarni to‘g‘ri hisoblash va ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining o‘talmay qolgan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish mahkumning oldingi holati bilan solishtirganda yomonlashtirmasligi hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 43-modda. Toshkent. “Adolat” – 2015.

Har qanday holatda ham yengilroq jazoni muddati qonun bilan oʻrnatilgan yuqori chegarasidan oshib ketmasligi kerak. Hatto ozodlikdan mahrum qilishning muddati bu muddatlardan oshsa ham, axloq tuzatish ishlari va xizmat boʻyicha cheklashning davom etish muddati 3 yildan, intizomiy qismga joʻnatish 1 yildan, qamoq 6 oydan oshmasligi kerak. Axloq tuzatish ishlariga muvofiq holda muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida 5 yilgacha tayinlanishi mumkin. Jarimaning miqdorini esa oʻtalmay qolgan qism doirasida ushlab qolingani umumiy miqdordan kelib chiqib belgilanishi zarur”¹.

Jinoyat qonunchiligida jazoning oʻtalmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi belgilangan boʻlsada, lekin qonun chiqaruvchi oʻtalmay qolgan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish natijasida belgilanadigan jazo aynan qancha miqdorda va qancha muddatda, yaʼni ushbu jazoning aniq meʼyorini belgilab bermagan. Shuning uchun bu borada ikki xil sharhlanishiga olib kelishi mumkin. Birinchisi, ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining oʻtalmay qolgan qismi aynan shu muddatga teng boʻlgan muddatda boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Ikkinchisi esa ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlarining boshqa jazolarga nisbatan Jinoyat kodeksida belgilangan qancha miqdori boshqa jazolarning qancha miqdoriga toʻgʻri kelishini hisoblab chiqib ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlarining oʻtalmay qolgan qismiga mutanosib miqdorda tayinlanadi. Masalan, agar hukm qilingan shaxs jazo tariqasida tayinlangan jarimani majburiy ijro etish uchun belgilangan muddatlarda toʻlashdan boʻyin tovlasa jarima axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilishning har bir oyi eng kam oylik ish haqining oʻn olti baravari miqdoridagi jarimaga tenglashtirilib, uch yildan koʻp boʻlmagan muddatga tayinlanadi. Jarimani axloq tuzatish ishlariga va ozodlikdan mahrum qilish jazosiga, axloq tuzatish ishlari va xizmat boʻyicha cheklashni ozodlikdan mahrum qilishga teng muddatlari belgilangan boʻlsada, qamoqni va axloq muayyan huquqdan mahrum qilishi axloq tuzatish ishlari va ozodlikdan mahrum

¹ Mualliflar jamoasi. Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga sharhlar. Toshkent-2010.

qilish jazolariga teng muddatlari aniqlab berilmagan. Shuning uchun bu holatlar huquqni qo‘llashda tushunmovchiliklarga sabab bo‘lishi mumkin.

Masalan, yuridik olim M.X.Rustambayev axloq tuzatish ishlariga yengilroq jazo tariqasida jarima va muayyan huquqdan mahrum qilish bilan almashtirish mumkin deb hisoblasa, yuridik fanlar doktori, professor Q. Mirzajanov axloq tuzatish ishlariga yengilroq jazo tariqasida faqat jarimani almashtirish mumkin deb hisoblaydi. “Axloq tuzatish ishlari yengilroq jazo bilan almashtirilganida ularni faqat jarima bilan almashtirish mumkin, chunki Jinoyat kodeksining 43-moddasida muddat bilan bog‘liq boshqa yengilroq jazo yo‘q. Axloq tuzatish ishlarining o‘talmagan qismini yengilroq jazoga almashtirish Jinoyat kodeksi 44-moddasining uchinchi qismida belgilangan qoidaga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda axloq tuzatish ishlarining bir oyi eng kam ish haqining o‘n olti baravariga mos keluvchi jarima summasiga to‘g‘ri kelishidan kelib chiqiladi”¹.

Ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlaridan boshqa jazo turiga hukm qilinganlarga nisbatan jazoni yengilroq‘i ilan almashtirish qo‘llanilmaydi.

Jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish qo‘llash shartlarining mahkumning xulq-atvori bilan bog‘liq shartlar O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 74-moddasida quyidagicha belgilangan. Ushbu shartlar ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari uchun o‘rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo‘lish hisoblanadi.

Ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari uchun o‘rnatilgan tartib-qoida talablari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat ijroiya kodeksi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan 2012-yil 29-dekabrda 174-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari” va O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan 2001-yil 17-noyabrda 298-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Axloq tuzatish ishlari, muayyan

¹ Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi. Toshkent – 2012. 382-bet.

huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid yo‘riqnoma”da mustahkamlangan.

Rejim deganda jazoni o‘tash va ijro etish tartibi tushuniladi. Rejim mahkumning o‘zgarishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Mahkumni axloqan tuzatishning asosiy vositalariga jazoni ijro etish va o‘tashning belgilangan tartibi (rejimi), ijtimoiy foydali mehnat, tarbiyaviy ish, umumiy va hunar ta’limi, kasb tayyorgarligi va jamoat ta’siri kiradi (JIK 7-moddasi). JK 74-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilgan jazolarning har birini ijro etish va o‘tash tartibi Jinoyat-ijroiya kodeksi va boshqa huquqy hujjatlar bilan belgilanadi.

Jazoni o‘tashda intizom buzilishlarining mavjud emasligi, jazoni ijro etish bo‘yicha ma’muriyatning qonuniy talablariga rioya etish, mahkumlar uchun ruxsat etilgan jamoat tashkilotlarining ishlarida qatnashish, tashabbuskorlik ko‘rsatish, tartibni saqlashda ma’muriyatga yordam berish, maktablarda o‘quv mashg‘ulotlariga doimiy ravishda qatnashish uning tuzalish yo‘lidan borayotganligini ifodalovchi holatlar yig‘indisi sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Ijroiya Kodeksining 62-moddasida ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoning ijro etish muassasalaridagi rejim va uning maqsadlari belgilab berilgan. Unga asosan jazoni ijro etish muassasalarida rejim jazodan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun belgilanadi.

Rejim quyidagilarni ta’minlaydi:

mahkumlarni batamom ajratib qo‘yish, ularni qo‘riqlash va nazorat qilib turishni;

mahkumlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek ularning o‘z majburiyatlarini ado etishini;

muayyan toifadagi mahkumlarni alohida-alohida saqlashni;

muassasa turiga qarab mahkumlarni har xil sharoitda saqlashni;

mahkumlarning va muassasa xodimlarining xavfsizligini.

Jazoni ijro etish muassasalarida rejim O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan Ichki tartib qoidolari va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

“Mehnatga halol munosabat deganda, mahkumlar mehnatga jalb qilinib, o‘ziga yuklatilgan mehnat vazifasini va belgilangan normani muttasil, sidqidildan halol bajarib kelayotganligi uning halol mehnat yo‘liga o‘tib olganligini ko‘rsatuvchi mezon hisoblanib, uni jazoni jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun taqdim qilishga asos bo‘ladi. Bu asosni mahkumning jazoni ijro etish va o‘tash tartibiga rioya etish majmui sifatida qarash kerak. Bir qancha holatlarda mehnatga halol munosabatda bo‘lish (masalan, ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo tayinlanganda) alohida ahamiyat kasb etishi mumkin.

O‘zgarishi mumkinligi haqidagi sudning xulosasi uning xulq-atvori to‘g‘risidagi ma’lumotlardan kelib chiqadi, ya’ni faqat jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish to‘g‘risidagi masalani ko‘rish paytidagina emas, balki butun jazoni o‘tash mobaynidagi rejimga rioya qilish, mehnatga munosabati hisobga olinadi.

Mehnatga halol munosabat birinchi navbatda mahkumning jazoni o‘tash muassasalarida tashkil etilgan mehnat faoliyatida o‘z xohishi bilan faol ishtirok etishi bilan belgilanadi. Bunday munosabat mahkumning ishlab chiqarishda, qishloq xo‘jaligida, xo‘jalik ishida, koloniya hududidagi obodonchilik ishida va boshqa turli ijtimoiy foydali ishlarni halol bajarishida ifodalanadi. Mehnatga halol munosabati, shuningdek, mahkumning muayyan bir hunar o‘rganishi, o‘z malakasini oshirishi, ish tajribalarini boshqalarga o‘rgatishi bilan tavsiflanadi”¹.

Mahkumni axloqan tuzalishi unda qonunga itoatkor xulq-atvor, insonga, jamiyatga, mehnatga, jamiyat turmushi qoidalari va an’alariga hurmat munosabati shakllanganligida namoyon bo‘ladi.

Jazoning yengilrog‘i bilan almashtirish mumkinligi to‘g‘risidagi masalaning vujudga kelishi uchun asos bilan birga sudning shaxsni tuzalishi yo‘liga kirganligiga ishonchi ham mavjud bo‘lishi lozim. Shaxsning tuzalishi bo‘yicha kirganligi uchun uning ozodlikdan mahrum etish yoki axloq tuzatish joylarida belgilangan tartib talablarini bajarishi va uning mehnatga halol munosabatda

¹ M.H.Rustambaev. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom. Umumiy qism. Darslik. “ILM ZIYO” nashriyot uyi. Toshkent – 2011. 203-bet

bo'lishi kafolat beradi. Ushbu asoslar va shartlar mavjud bo'lgan holatlarda jazoni yengilrog'i bilan almashtirilishiga yo'l qo'yiladi.

Mahkumning ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarishi va mehnatga halol munosabatda bo'lishi mahkumning xulq-atvori bilan bog'liq jazoni yengilrog'i bilan almashtirish shartlari hisoblanadi.

Endi jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari jazolarining o'talishi bilan bog'liq bo'lgan muddatlar aniqlovchi shartlarga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu shartlar jinoyat qonunida quyidagicha belgilangan.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun mahkum:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida to'rt dan bir qismini;

b) og'ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan bo'lsa, sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

v) o'ta og'ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilgan va jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llanilishi mumkin.

Ushbu muddatlar O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida" Qonuni bilan JKga o'zgartirishlar kiritulgunga qadar ko'proq muddatni tashkil etar edi. Ushbu qonun bilan JKga o'zgartirish kiritulgunga qadar bu muddatlar quyidagicha belgilangan edi:

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish, mahkum:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

b) og‘ir jinoyati uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar u ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilib, sud tayinlagan jazo muddatining kamida yarmini;

v) o‘ta og‘ir jinoyati uchun, shuningdek jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan va jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan sodir etgan yangi jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini haqiqatda o‘tab bo‘lganidan keyin qo‘llaniladi.

Bu o‘zgarishlar ham davlatimizning jinoiy huquqiy siyosatini liberallashtirilishini ko‘rsatuvchi o‘zgarishlardan biri hisoblanadi.

Agar shaxs ozodlikdan mahrum etilgan, axloq tuzatish ishlari bilan jazolangan bo‘lsa, agar u tayinlangan jazo muddatining muayyan qismini o‘taganda bunday jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishi mumkin. Mazkur muddatlar sodir etilgan jinoyatning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasi hamda mahkumning shaxsiga ko‘ra belgilangan.

Ushbu jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun jazoni o‘talishi lozim bo‘lgan muddatlar eng kam muddatlar hisoblanib ushbu belgilangan muddatlardan kam muddat o‘talgan bo‘lishi jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni istisno etadi.

“O‘talgan muddatlarni to‘g‘ri hisoblash va ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining o‘talmay qolgan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish, oldingi holati bilan solishtirganda mahkumning ahvolini yomonlashtirmasligi jinoiy jazoning odillik va qonuniylik kafolati bo‘lib hisoblanadi. Har qanday holatda ham yengilroq jazoning muddati qonun bilan o‘rnatilgan yuqori chegarasidan oshib ketmasligi kerak. Hatto, ozodlikdan mahrum qilishning muddati bu muddatlardan oshsa ham, axloq tuzatish ishlari va xizmat bo‘yicha cheklashning davom etish muddati uch yildan, intizomiy qismga jo‘natish bir yildan, qamoq olti oydan oshmasligi kerak. Axloq tuzatish ishlariga muvofiq holda muayyan huquqdan mahrum qilish asosiy jazo sifatida besh yilgacha tayinlanishi

mumkin. Jarimaning miqdorini esa, o‘talmay qolgan qism doirasida ushlab qolingan umumiy miqdordan kelib chiqib belgilash zarur”¹.

Jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra turlari O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 15-moddasida belgilab berilgan.

Ozodlikdan mahrum qilish jazosiga yengilroq jazo tariqasida uning o‘talmay qolgan qismini axloq tuzatish ishlari bilan almashtirish mumkin bunda axloq tuzatish ishlarining muddati qonunda axloq tuzatish ishlari uchun belgilangan muddatlar doirasida tayinlanadi, bunda axloq tuzatish ishlarining muddati ozodlikdan mahrum qilishning o‘talmagan qismi muddatidan ko‘p bo‘lmasligi kerak.

“JK 74-moddasi to‘rtinchi qismiga ko‘ra, sud hukmi asosida tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoning o‘talmagan qismi axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlari ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talmagan qismi muddatiga tayinlanadi. Bu shuni anglatadiki, masalan, ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talmagan muddati JK 46-moddasi ikkinchi iismida ko‘rsatilgan (olti oydan uch yilgacha) axloq tuzatish ishlari jazosi bilan almashtirilganda, axloq tuzatish ishlarining umumiy muddati, olti oydan kam bo‘lishi va uch yildan ortiq bo‘lishi mumkin emas. Ozodlikdan mahrum qilish jazosining o‘talmagan qismini axloq tuzatish ishlariga almashtirishda sud bu qoida bilan bog‘liq emas. Masalan, og‘ir jinoyat sodir etgan shaxsni olti yilga ozodlikdan mahrum qilinganda, JK 74-moddasi 3-qismi “b” bandiga ko‘ra, tayinlangan jazoning ikki yilini o‘tagandan so‘ng (olti yilning uchdan bir qismi) va boshqa kerakli shartlarga rioya qilgan holda o‘talmagan muddat yengilroq jazoga almashtirilishi, ya’ni to‘rt yilga axloq tuzatish ishlariga jalb qilinishi mumkin (6-2q4). Ko‘rinib turibdiki, berilgan vaziyatda amaliyotda qo‘llaniladigan va qonun chiqaruvchi tomonidan qo‘llaniladigan bunday yo‘nalish JK 54-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan jazo tayinlash qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi, unga ko‘ra “Jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxs jazoga tortiladi. Sud

¹ M.H.Rustambaev. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom. Umumiy qism. Darslik. “ILM ZIYO” nashriyot uyi. Toshkent – 2011. 210-bet.

ushbu Kodeks Maxsus qismining jinoyat sodir etganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan moddasida belgilangan doirada Umumiy qismining qoidalariga muvofiq jazo tayinlaydi". Ya'ni, shu qoidaga muvofiq konkret jazo turini tayinlash mobaynida, sud hech qanaqa holatda (jazo tayinlashda ham, jazodan ozod qilishda ham) JK Umumiy qismida ko'rsatilgan eng kam va eng ko'p chegaralaridan chiqmasligi kerak.

Ko'rsatilgan jinoyat-huquqiy kolliziya JK 74-moddasi 4-qismi dispozitsiyasining 2003-yil 12-dekabrdagi O'zbekiston Respublikasi Qonuni tahririda bayon etilishi bilan JK 46-moddasi 2-qismi ham tegishli ravishda o'zgarmaganligi sabab bo'lgan (Axloq tuzatish ishlari), ya'ni JK 46-moddasini "mazkur Kodeksning 74-moddasi 4-qismi bundan mustasno" degan so'zlar bilan to'ldirilishi kerak bo'lganligidan kelib chiqqan.

Yana bir varianti: JK 74-moddasi 4-qismiga "uch yildan ko'p bo'lmagan" degan mazmundagi qo'shimcha kiritish bilan yanada takomillashtirish orqali paydo bo'lgan qarama-qarshilik yechimiga erishish mumkin"¹.

Bunday holatda axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazoning muddati 6 oydan yoki 3 yildan ko'p bo'lmashligini hisobga olish lozim. Shunday ekan, ozodlikdan mahrum qilishning axloq tuzatish ishlariga almashtirganda, ozodlikdan mahrum qilishning o'talmay qolgan qismi axloq tuzatish ishlarining umumiy muddati doirasida tayinlanadi. Masalan, 8 yil ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlangan shaxsga nisbatan qo'llanilganda, jazoni o'tash tartib-qoidalariga rioya qilganda va jazoning ma'lum bir qismini o'taganda (misol tariqasida 3 yil) jazoning qolgan 5 yilini faqat 3 yoki undan kamroq muddatga axloq tuzatish ishlariga almashtirish mumkin".

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 74—moddasida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi ham belgilangan.

¹ M.H.Rustambaev. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom. Umumiy qism. Darslik. "ILM ZIYO" nashriyot uyi. Toshkent – 2011. 211-bet

“Jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirish ushbu Kodeksning 73-moddasi to‘rtinchi qismida ko‘rsatilgan shaxslarga nisbatan qo‘llanilmaydi”¹. Ushbu norma havolaki norma bo‘lib u JKning 73-moddasiga havola qiladi. Ushbu moddada jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo‘llanilmaydigan shaxslar doirasi belgilangan bo‘lib, bu shaxslar doirasiga jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish ham tatbiq etilmaydi. Ushbu qoidaga asoslanadigan bo‘lsak, jazoning qolgan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish quyidagilarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

a) umrbod yoki uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan shaxsga. Uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish yigirma yildan ortiq, lekin yigirma besh yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga belgilanadi va faqat javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi) va terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun tayinlanishi mumkin(JK 50-modda). Umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo‘lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish koloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo‘yishdan iboratdir. Umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi faqat javobgarlikni og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (97-moddaning ikkinchi qismi) va terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun belgilanadi(JK 51-modda);

b) o‘ta xavfli retsidivistga. Besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan qasddan yangi jinoyat sodir etish, ya’ni:

1) ilgari o‘ta og‘ir jinoyati uchun yoki ikki marta og‘ir jinoyati uchun hukm qilinib, ularning har biri uchun besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan shaxs tomonidan o‘ta og‘ir jinoyat sodir etilishi;

2) ilgari og‘ir jinoyati uchun ikki marta hukm qilingan yoki oldinkeyinligidan qat’i nazar, og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun ularning har biriga besh yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 74-modda. Toshkent. “Adolat” – 2015.

tayinlangan shaxsning og'ir jinoyat sodir etishi o'ta xavfli retsidiv jinoyat deb topiladi(JK 34-modda uchinchi qismi);

v) uyushgan guruh yoki jinoiy uyushmaning tashkilotchi va qatnashuvchilariga. Ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi.**I.** Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi(JK 29-moddasi to'rtinchi va beshinchi qismi);

g) javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish, o'n to'rt yoshga to'lmaganligi aybdorga ayon bo'lgan jabrlanuvchining nomusiga tegish yoki unga nisbatan zo'rlik ishlatib, jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish, O'zbekiston Respublikasiga, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyat sodir etish, yadroviy, kimyoviy, biologik va boshqa xildagi ommaviy qirg'in qurollarini, shunday qurollarni ishlab chiqarish uchun foydalanish mumkinligi ayon bo'lgan material va uskunalarni, kontrabanda qilish uchun hukm qilingan shaxslarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Belgilangan shaxslar doirasi ularning ijtimoiy xavflilik jihatidan boshqa toifadagi shaxslarga nisbatan yuqorililigi, ularning ayrimlariga ilgari ham jazodan ozod qilish turlari qo'llanilganligi, ularga nisbatan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llash maqsadga muvofiq emasligi uchun ham ularga nisbatan Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni instituti qo'llanilmaydi.

Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxslar yengilroq jazoning tegishli qismini o'tab bo'lganlaridan keyin Jinoyat Kodeksining 73-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishlari mumkin. JKning 73-moddasida jazodan ozod qilishning yana bir turi hisoblangan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish belgilangan bo'lib agar mahkumga jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi natijasida tayinlangan yengilroq jazoni JKning 73-moddasida belgilangan qismini o'tagan bo'lsa mahkumga jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish

qo‘llanilishi mumkin. Jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish institutini qo‘llash shartlari va asoslari JKning 73-moddasida ifodalangan.

JKning 74-moddasiga asosan “Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa, sud unga ushbu Kodeksning 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi”. JKning 60-moddasida bir nechta hukm bo‘yicha jazo tayinlash belgilangan. Agar jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan shaxs jazoning o‘talmagan qismi davrida qasddan yangi jinoyat sodir etsa unga 60-modda tartibida jazo tayinlanadi. Bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlash, shaxs muayyan davr ichida jinoyat sodir etgan hollarida, ya‘ni hukm chiqarilib, jazo butunlay o‘talmagan paytda qo‘llaniladi. Ya‘ni agar bir jinoyati uchun hukm chiqarilganidan keyin shaxs jazoni o‘tash muddati davomida yana jinoyat sodir etsa, mahkumga bir necha hukmlar yuzasidan jazo tayinlanadi. Yangi qasddan jinoyat sodir etish deb, hukm chiqarilgan vaqtdan boshlab(yengilroq jazo bilan almashtirilgan davrda ham) tayinlangan jazoni o‘tab bo‘lgungacha bo‘lgan davrda, qasddan sodir etilgan jinoyat tushuniladi.

“Agar yangi jinoyat shaxs tomonidan birinchi hukm bo‘yicha qo‘llanilgan jazo JK 74-moddasiga asosan yoki afv etish, yoxud amnistiya akti asosida yengilroq‘i bilan almashtirilganidan so‘ng sodir etilgan bo‘lsa, ikkinchi hukm bo‘yicha tayinlangan jazoga almashtirilgan yengilroq jazoning o‘talmagan qismi qo‘shiladi”¹. Ya‘ni, muayyan shaxsga jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish qo‘llanilganda u ushbu almashtirilgan yengilroq jazoni o‘tayotgan vaqtda qasddan yangi jinoyat sodir etsa yengilroq jazoning o‘talmay qolgan qismi keyingi sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazoga qo‘shiladi.

Ushbu moddaning oxirgi qismi tahlil qilinsa jazoni yengilroq‘i bilan almashtirish qo‘llanilgan mahkum yengilroq jazoni o‘tash vaqtida ehtiyotsizlikdan jinoyat qilsa, 60-moddaning qoidalari tatbiq qilinmay, ehtiyotsizlikdan qilingan jinoyatning o‘zi uchun javobgar bo‘ladi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sud Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida” Qarori. 57-bandi. 2006-yil 3-fevral.

JKning 74-moddasi nazarda tutilgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish shartlari va asoslar voyaga yetgan mahkumlarga nisbatan belgilangan bo'lib ular o'n sakkiz yoshga to'lmadan turib jinoyat sodir etganlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

“Bizning jinoyat qonunchiligimiz, insoniylik tasavvurlarini rahbarlikka olib jinoyat qilgan voyaga yetmaganlarga qator yengilliklarni nazarda tutadi”¹. Darhaqiqat, Prezidentimizning ushbu so'zlarining isboti amaldagi jinoyat qonunchiligimizda o'z isbotini topgan. Voyaga yetmagan shaxslarning ruhiy va fiziologik jihatlarini hisobga olgan holda qonun chiqaruvchi ularga nisbatan jinoyat qonunchiligini qo'llashning voyaga yetgan shaxslardan farq qiluvchi alohida tartibini belgilagan. JKning VI bo'limida voyaga yetmagan shaxslarning jinoiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlari belgilab berilgan. Xususan, o'n sakkiz yoshga to'lmadan turib jinoyat sodir etganlarga nisbatan jazodan ozod qilishning jazoni yengilrog'i bilan almashtirish turini qo'llash asoslari va tartibi alohida normada JKning 90-moddasida belgilangan.

Voyaga yetgan mahkumlar va voyaga yetmasdan turib jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni yengilrog'i bilan qo'llash institutini qo'llashning shartlari va asoslarini qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu institutni qo'llashning shartlaridagi farqni Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun jazoning o'talishi bilan bog'liq bo'lgan muddatlarda ko'rishimiz mumkin.

“Jazoning o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirish:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida beshdan bir qismi;

b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida to'rttdan bir qismi;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga

¹ I.A.Karimov. Adolat-qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustdagi VI sessiyasida “Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak” mavzusida qilingan ma'ruza. 10-tom. – T.:”O'zbekiston” , 2002. -26-50-b.

hukm qilingan bo'lsa, tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini o'tab bo'linganidan keyin qo'llanilishi mumkin"¹.

Ushbu muddatlar yuqorida ta'kidlanganidek, O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining jinoyat, jinoyat-protsessual kodekslari hamda ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida" Qonuni bilan JKga o'zgartirishlar kiritulgunga qadar ko'proq muddatni tashkil etar edi. Ushbu qonun bilan JKga o'zgartirish kiritulgunga qadar bu muddatlar quyidagicha belgilangan edi:

Jazoning o'talmagan qismini yengilrog'i bilan almashtirish:

a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining to'rtidan bir qismi;

b) og'ir jinoyat uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismi;

v) o'ta og'ir jinoyat uchun, shuningdek qasddan sodir etgan jinoyati uchun, agar shaxs ilgari qasddan sodir qilgan jinoyat uchun ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinib, tayinlangan jazo muddatining kamida yarmi haqiqatda o'tab bo'linganidan keyin qo'llanilishi mumkin.

Jazo yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxslarga nisbatan yengilroq jazoning tegishli qismi o'tab bo'linganidan keyin JKning 89-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilishi mumkin. Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib jinoyat sodir etganlar yengilroq jazoning tegishli qismini o'tab bo'lganlaridan keyin Jinoyat Kodeksining 89-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishlari mumkin. JKning 89-moddasida jazodan ozod qilishning yana bir turi hisoblangan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning o'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib jinoyat sodir etganlar uchun qo'llash asoslari va shartlari belgilangan bo'lib agar mahkumga jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi natijasida

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 90-modda. Toshkent. "Adolat" – 2015.

tayinlangan yengilroq jazoni JKning 89-moddasida belgilangan qismini o'tagan bo'lsa mahkumga jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilishi mumkin.

O'n sakkiz yoshga to'lmasdan turib jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jazoni yengilroq jazo bilan almashtirilganda shaxs tayinlangan yengil jazoni o'tash vaqtida qasddan yangi jinoyat sodir qilsa, Jinoyat kodeksining 60-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlanadi. Ammo bunda almashtirilgan yengilroq turdagi jazoning o'talgan qismi ham jazo muddatiga qo'shib hisoblanadi.

Bundan tashqari, JKning 76-moddasida yuqoridagi jinoyat qonunida belgilangan jazoni yengilroq'i bilan almashtirishni qo'llashni uchun zarur bo'lgan shartlar mavjud bo'lmasa ham jazoni o'talmagan qismini yengilroq'i bilan almashtirish mumkinligi asosi keltirilgan. Bu asos shaxsning amnistiya akti yoki avf etish asosida ozod qilish hisoblanadi. "Hukm etilgan shaxs amnistiya akti yoki avf etish asosida asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin"¹.

O'zbekiston Respublikasi JKning 74-moddasi asosida jazoning qolgan qismi yengilroq jazo bilan almashtiriltan bo'lsa sudlanganlik holati yengilroq jazo bilan almashtirilgan muddat o'tab bo'lingan kundan sudlanganlik holatini hisoblash boshlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 76-modda birinchi qism. Toshkent. "Adolat" – 2015.

2.2. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash tartibi va uning jazodan ozod qilishning boshqa turlaridan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari

Jazoni yengilrog'i bilan qo'llashning asoslari va shartlari JKda belgilangan bo'lsa uning amalga oshirish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-Ijroiya Kodeksida mustahkamlangan. Ma'lumki, jinoyat huquqi moddiy huquq sohasi jinoyat protsessi va jinoyat ijroiya huquqi esa protsessual huquq sohasi hisoblanadi. Shuning uchun ham jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tartibi, uning amalga oshirish jarayoni jinoyat protsessi va jinoyat ijroiya huquqida belgilangan.

“Jinoyat kodeksining 73 va 74-moddalarida nazarda tutilgan hollarda jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyatining taqdimnomasiga yoki mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga binoan sudya tomonidan qo'llaniladi.

Intizomiy qismda jazoni o'tayotganlarga nisbatan ana shu choralar intizomiy qism qo'mondonligining taqdimnomasiga yoki mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga binoan sudya tomonidan qo'llaniladi.

Jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish va jazoning o'talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish o'n sakkiz yoshga to'lmay jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati va voyaga etmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning birgalikdagi taqdimnomasiga binoan yoxud mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga asosan sudya tomonidan qo'llaniladi.

Muayyan huquqdan mahrum etish tarzidagi jazodan ozod qilish jamoat birlashmasi, jamoa, mahkumning o'zi yoki uning himoyachisining iltimosnomasiga binoan sudya tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu masalalar to'g'risidagi taqdimnomalar yoki iltimosnomalar ularni rad etish to'g'risida qaror chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o'tgach, qayta ko'rib chiqilishi mumkin”¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual Kodeksi. 536-modda. Toshkent. “Adolat” – 2014.

Ushbu moddaga asosan shaxsga nisbatan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llash sudya tomonidan jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyatining taqdimnomasiga yoki mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga asosan, o‘n sakkiz yoshga to‘lmay jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan esa jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyati va voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyaning birgalikdagi taqdimnomasiga binoan yoxud mahkumning, uning himoyachisining iltimosnomasiga asosan amalga oshiriladi.

Jinoyat ijroiya Kodeksiga asosan mahkum jazo muddatining Jinoyat kodeksi 74 va 90-moddalarida belgilangan qismini o‘tab bo‘lganidan so‘ng bir oylik muddat ichida jazoni ijro etuvchi muassasa yoki organ ma‘muriyati uni jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirishga taqdim etish masalasini agar mahkum yoki uning advokati tegishli iltimosnoma bilan sudga bevosita murojaat etmagan bo‘lsa ko‘rib chiqishi hamda taqdim qilish yoki rad etish haqida qaror chiqarishi shart.

Ma‘muriyat mahkumni jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishga taqdim etishni rad etgan taqdirda mahkum yoki uning advokati sudga tegishli iltimosnoma bilan murojaat etishga haqli.

Sud jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni rad etgan taqdirda, bu haqda ajrim chiqqan kundan boshlab kamida olti oy o‘tganidan keyin taqdimnoma takroran kiritilishi yoki iltimosnoma takroran berilishi mumkin.

“Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirganda, odil sudlov organi shaxs tarbiyalanish yo‘liga o‘tganligi to‘la ishonch hosil qilishi kerak. Mahkum jazo o‘tashni barcha vaqti uchun tavsiflanishi kerak. Bu, salbiy xulq-atvori bilan ajralib yurgan, yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin bo‘lgan vaqtgacha 4-5 oy qolganda esa o‘zini “qayta tuzalganligini” namoyon qiluvchi mahbuslarga jazoning o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirishga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida qilinadi. Agar sud mahkumning xulq-atvorini baholab, jazoni o‘talmagan qismini yengilrog‘i bilan almashtirishni lozim topmasa, qonunda belgilangan muddatda jazoni ijro etish muassasasi ma‘muriyati sudga qayta tavsifnoma kiritishi mumkin.

Mahkum jazoni o‘talmagan qismi davomida tayinlangan yengil jazoga nisbatan boshqa, og‘ir jinoyat sodir etsa, yangi hukm bo‘yicha tayinlangan jazoga yengilroq jazoning o‘talmagan qismi to‘la yoki qisman qo‘shilib jazo tayinlanadi”¹.

Yuqorida ta’kidlanganidek, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish ham jazodan ozod qilishning bir turi hisoblanadi. Ushbu institut jazodan ozod qilishning bir turi bo‘lishi bilan birga, u jazodan ozod qilishning boshqa turlaridan o‘zining qo‘llanish asoslari, shartlari va huquqiy oqibatlariga ko‘ra farq qiluvchi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Quyida jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni jazodan ozod qilishning boshqa turlari bilan solishtirish orqali bu farqlar ko‘rsatiladi.

Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganigi sababli jazodan ozod qilish bilan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni farqli tomonlari. Jazodan ozod qilishning ushbu asosi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 69-moddasida belgilab qo‘yilgan. Ushbu moddani qo‘llanishi uchun asos bo‘ladigan xolatlar bu jazoni ijro qilish muddati o‘tib ketganligi va shaxs jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi tufayli jazodan ozod qilish qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir. Ushbu muddatlar JKning 69-moddasi birinchi qismida ko‘rsatilib, ular tayinlangan jazonining muddatidan kelib chiqib belgilangan. Jazoning yengilrog‘i bilan qo‘llash uchun asoslar va shartlari esa tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo‘lishligi, mahkum ushbu jazoni o‘tash tartib qoidalarini bajarishi, mehnatga nisbatan halol munosabatda bo‘lishi, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKning 74-moddasida belgilangan muddatlar o‘talgan bo‘lishi, shaxs esa jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilmaydigan shaxslar doirasi jazoni o‘tash muddati o‘tib ketganligi tufayli jazodan ozod qilish qo‘llanilmaydigan shaxslar doirasiga nisbatan qonunchilikda kengroq doirada belgilangan.

Jazoni ijro etish muddati o‘tib ketganligi tufayli jazodan ozod qilishda tayinlangan jazo ijro etilmaydi va shaxs JKning 69-moddasida nazarda tutilgan

¹ Q.P.Payzullayev. Jinoyat ijroiya huquqi. Darslik. Toshkent 2006.

muddatlar mavjud bo'lsa jazodan butunlay ozod qilinadi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda esa shaxs unga tayinlangan axloq tuzatish ishlari yoki ozodlidan mahrum qilishni muayyan muddatini ijro etadi va unga tayinlangan jazo boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi.

Shaxsni ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish bilan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni farqli tomonlari. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 70-moddasida shaxsni ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish belgilab qo'yilgan. Shaxsni ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilish uchun asos bo'ladigan xolatlar bu jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko'rilayotgan vaqtgacha sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb e'tirof etilganligidir. Jazoning yengilrog'i bilan qo'llash uchun asoslar va shartlari esa tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo'lishligi, mahkum ushbu jazoni o'tash tartib qoidalarini bajarishi, mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishi, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKning 74-moddasida belgilangan muddatlar o'talgan bo'lishi, shaxs esa jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir.

Shaxsni ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotishi munosabati bilan jazodan ozod qilishda aybdorga hech qanday jazo tayinlanmaydi va hech qanday jazo ijro etilmaydi va shaxs JKning 70-moddasida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lsa jazodan ozod qilinadi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda esa shaxsga nisbatan avval axloq tuzatish ishlari yoki ozodlidan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'ladi va ular bu jazolarning muayyan muddatini ijro etadi va unga tayinlangan jazo boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Shaxs yengilroq jazoni ijro etishni davom ettiradi.

Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilish bilan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni farqli tomonlari. Jazodan ozod qilishning ushbu turi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat

kodeksining 71-moddasida belgilab qo'yilgan. Ushbu moddani qo'llanishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi zarur:

- jinoyatni birinchi marta sodir etish;
- ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni sodir etish;
- o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilish;
- jinoyatning ochilishiga faol yordam berish;
- keltirilgan zararni bartaraf qilish.

Jazoning yengilrog'i bilan qo'llash uchun asoslar va shartlari esa quyidagilar:

- tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo'lishligi;
- ushbu jazolarni o'tash tartib qoidalarini bajarishi;
- mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishi;
- jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKning 74-moddasida belgilangan muddatlar o'talgan bo'lishi;
- shaxs esa jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda shaxs unga tayinlangan axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilishni muayyan muddatini ijro etadi va unga tayinlangan jazo boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Aybdor o'z amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan jazodan ozod qilishda esa aybdorga hech qanday jazo tayinlanmaydi hech qanday jazo ijro etilmaydi.

Shartli hukm qilish bilan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni farqli tomonlari. Jazodan ozod qilishning bir turi sifatida shartli hukm qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 72-moddasida belgilab qo'yilgan. Shartli hukm qilish uchun asos bo'ladigan xolatlar bu sud ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini tayinlash vaqtida sodir etilgan jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, aybdorning shaxsi va ishdagi boshqa holatlarni e'tiborga olib, aybdor tayinlangan

jazoni o'tamasdan turib ham uning xulqini nazorat qilish orqali tuzatish mumkin, degan qat'iy fikrga kelganligidir.

Jazoning yengilrog'i bilan qo'llash uchun asoslar va shartlari esa tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo'lishligi, mahkum ushbu jazoni o'tash tartib qoidalarini bajarishi, mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishi, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKning 74-moddasida belgilangan muddatlar o'talgan bo'lishi, shaxs esa jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir.

Agar shaxs shartli hukm qilinsa sud unga nisbatan sinov muddati tayinlaydi va sinov muddati davomida jazoning shartlilikini bekor qilish asoslari kelib chiqmasa, tayinlangan jazoni ijro etmaslik to'g'risida qaror chiqaradi. Agar shartli hukm qilingan shaxssinov muddati davomida shartli hukm taablarini bajrmasa sud shartli hukmni bekor qiladi va tayinlangan jazoni ijro etish haqida ajrim chiqaradi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda esa shaxsga nisbatan avval axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'ladi va ular bu jazolarning muayyan muddatini ijro etadi va unga tayinlangan jazo boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Shaxs yengilroq jazoni ijro etishni davom ettiradi.

Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish bilan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni farqli tomonlari. Jazodan ozod qilishning ushbu asosi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasida belgilab qo'yilgan. Ushbu moddani qo'llanishi uchun asos bo'ladigan xolatlar bu Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari va shartlari JKda bir xil belgilangan. Bular: tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo'lishligi, mahkum ushbu jazoni o'tash tartib qoidalarini bajarishi, mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishi, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKda belgilangan muddatlari o'talgan bo'lishi, shaxs esa jazoni yengilrog'i

bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir.

Ikki o'rtasidagi asosiy farq bu jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda jazo yengilroq boshqa jazo bilan almashtiriladi. Muddatidan ilgari shartli ravishda jazodan ozod qilish esa shaxs tayinlangan jazodan shartli ravishda ozod etiladi. Unga boshqa yengilroq jazo tayinlanmaydi. Qolaversa sudlanganlikni tugallanishida ham ular o'rtasida farq mavjud. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning sudlanganlik muddati jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan kundan boshlansa, jazoni yengilrog'i bilan almashtirilgan shaxsning sudlanganlik muddati yengilroq jazo bilan almashtirilgan jazo muddati tamom bo'lgandan keyin boshlanadi.

Kasallik yoki mehnat qobiliyatini yo'qotish oqibatida jazodan ozod qilish bilan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni farqli tomonlari. Jazodan ozod qilishning ushbu turi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 75-moddasida belgilab qo'yilgan. Ushbu moddani qo'llanishi uchun asos bo'ladigan xolatlar bo'lib shaxs hukm chiqarilganidan keyin o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan va boshqara olmaydigan darajada ruhiy kasallikka, shuningdek jazoni o'tashga to'sqinlik qiladigan boshqacha og'ir kasallikka chalinib qolishidir. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari va shartlari esa tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo'lishligi, mahkum ushbu jazoni o'tash tartib qoidalarini bajarishi, mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishi, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKda belgilangan muddatlari o'talgan bo'lishi, shaxs esa jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir.

Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish bilan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni farqli tomonlari. Amnistiya akti yoki afv etish asosida jazodan ozod qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 76-moddasida belgilab qo'yilgan. Uni qo'llash uchun asos bo'ladigan xolat amnistiya akti yoki afv etishdir. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish asoslari va shartlari esa

tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo'lishligi, mahkum ushbu jazoni o'tash tartib qoidalarini bajarishi, mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishi, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKda belgilangan muddatlari o'talgan bo'lishi, shaxs esa jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasiga kirmasligidir.

Amnistiya akti yoki avf etish asosida shaxs asosiy va ijro etilmagan qo'shimcha jazolardan ozod qilinishi yoxud jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilinishi yoki unga tayinlangan jazoning o'talmay qolgan qismi engilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda esa shaxsga nisbatan avval axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'ladi va ular bu jazolarning muayyan muddatini ijro etadi va unga tayinlangan jazo boshqa yengilroq jazo bilan almashtiriladi. Shaxs yengilroq jazoni ijro etishni davom ettiradi.

3.1. Xorijiy davlatlarning jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish instituti borasida tajribasi.

Mamlakat huquqiy tizimini, shu jumladan jinoyat huquqi sohasini takomillashtirish, liberallashtirishda bu sohadagi chet el qonunchiligini o‘rganish va uni ilg‘or jihatlarini milliy huquq tizimiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi “Normativ huquqiy hujjatlar to‘g‘risida” gi qonunda ham muayyan normativ-huquqiy hujjatni, huquq normasini qabul qilayotganda shu sohadagi chet el tajribasini qiyosiy tarzda o‘rganish va bu to‘g‘risida xulosani normativ huquqiy hujjat loyihasiga ilova qilinishi zarurligi belgilab qo‘yilgan.

Biz ham o‘z tadqiqotimizda jazodan ozod qilishning jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutini chet el mamlakatlari jinoyat qonunchiligidagi shu institut va uning qo‘llanish shartlari bilan solishtirib, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlashni lozim topdik.

Rossiya Federatsiyasida jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish instituti. 1996-yil 13-iyunda qabul qilingan ***Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 80-moddasida*** jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llash asoslari va shartlari mustahkamlangan. Ushbu moddaning birinchi qismiga asosan RF jinoyat qonunchiligida intizomiy qismga jo‘natish, axloq tuzatish ishlari va ozodlikdan mahrum qilish jazolari tayinlangan shaxslarning jinoyat natijasida yetkazilgan zararining qoplanganligi va jinoiy jazoni o‘tash davridagi xulq-atvorini inobatga olib ushbu shaxsga nisbatan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llashi mumkin. Shu bilan birga shaxsga tayinlangan qo‘shimcha jazoni o‘tashdan ham qisman yoki to‘liq ozod etilishi mumkin. RFdan farqli o‘laroq O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida intizomiy qismga jo‘natish tariqasidagi jazo yengilrog‘iga almashtirilmaydi. Bizning davlatimizda faqatgina axloq tuzatish ishlari va ozodlikdan mahrum qilishgina yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

Bundan tashqari, RF Jinoyat kodeksining 80-moddasida tayinlangan jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun dastlab tayinlangan jazoni qancha qismini

o'tash shartlagi ham belgilangan. Unga asosan shaxsga tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosi yengilroq jazo bilan quyidagi hollarda:

a) uncha katta bo'lmagan bo'lmagan yoki o'rtacha og'ir jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;

b) og'ir jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida yarmini;

v) o'ta og'ir jinoyati uchun sud tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini;

g) voyaga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyati uchun, shuningdek RF Jinoyat kodeksining 210-moddasida nazarda tutilgan jinoyati uchun sud tomonidan tayinlangan jazoni kamida to'rt dan uch qismini;

d) o'n to'rt yoshga yetmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi sodir etgan jinoyati uchun sud tomonidan tayinlangan jazoni kamida beshdan bir qismini haqiqatda o'tab bo'lganidan keyin qo'llaniladi.

RF Jinoyat kodeksida yengilrog'iga almashtiriladigan jazo ushbu kodeksning 44-moddasida nazarda tutilgan istalgan jazoga almashtirilishi ko'rsatilgan.

RFda sud jazoni yengilrog'i bilan almashtirishda quyidagilarga e'tiborga olib Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yoki taqdimnomani ko'rib chiqadi:

- Shaxsni jazoni o'tash davridagi o'qishga, mehnatga bo'lgan munosabatini;
- Jamoat ishlaridagi ishtirokini;
- Jinoyat tufayli yetkazilgan zararni qisman yoki butunlar qoplaganligini.

Bizning mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida esa jinoyat tufayli yetkazilgan zarani qisman yoki to'liq qoplaganligi jazoni yengilrog'i bilan almashtirish to'g'risidagi iltimosnoma yoki taqdimnomani ko'rib chiqishda e'tiborga olinmaydi.

Bundan tashqari RF da sud muomalaga layoqatsiz deb topishni istisno etadigan pedofiliya kasalligiga chalingan va o'n to'rt yoshga to'lmagan shaxslarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyat sodir etgan o'n sakkiz yoshdan katta bo'lgan shaxslarga jazoni yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llashda unga

nisbatan qo'llanilgan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini va sud psixiatriya ekspertizasi xulosalarini o'rganib chiqadi. Bu holat bizning mamlakatimizda sudlar tomonidan e'tiborga olinishi belgilanmagan.

Ozarbayjon Respublikasida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti.

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti ***Ozarbayjon Respublikasining Jinoyat kodeksida*** ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u ushbu kodeksning 77-moddasida mustahkamlangan. Ushbu modda o'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish deb nomlangan va uni qo'llash asoslari va shartlari ko'rsatilgan.

“77.1. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlari uchun tayinlangan ozodlikdan mahrum qilingan jazoni o'tayotgan shaxsning sud jazoni ijro etish vaqtidagi shaxsning xulq-atvorini hisobga olib tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'talmagan qismini boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin. Bunda shaxs asosiy jazo bilan bir vaqtda qo'shimcha jazodan ham to'liq yoki qisman ozod qilinishi mumkin.

77.2 O'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun shaxs tayinlangan jazoni kamida uchdan bir qismini amalda o'tagan bo'lishi kerak.

77.3. Sud o'talmagan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishda ushbu kodeksning 42-moddasida ko'rsatilgan istalgan yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin, bunda yengilroq jazo ushbu kodeksda har bir jazo uchun belgilab qo'yilgan doirada bo'lishi lozim”¹.

Ozarbayjon Respublikasi inoyat qonunchiligida aks etgan jazoning o'talmagan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish institutini mamalakatimiz jinoyat qonunchiligida belgilangan jazoni yengilrog'i bilan almahtirish qo'llash asoslari va shartlari bilan solishtirsak sezilarli farqlar kuzatiladi.

Bu farqlar quyidagilardan iborat:

➤ Ozarbayjon Respublikasida faqatgina ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. O'zbekistonda esa ozodlikdan mahrum qilish jazosidan tashqari axloq tuzatish

¹ Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. Статья 77. 30 декабря 1999 г.

ishlarining o'talmagan qismi ham boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

➤ Ozarbayjon Respublikasida faqatgina ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'talmagan qismi boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. O'zbekiston JKda esa ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan, uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar bilan birga og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar uchun tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarning o'talmagan qismi boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.

➤ O'zarbayjon jinoyat qonunchiligiga asosan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni amalda o'talishi lozim bo'lgan muddat tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosining kamida uchdan birini tashkil etgan. O'zbekiston JKda esa bu muddatlar jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi va alohida jinoyatlar uchun tayinlangan jazolarga nisbatan har xil muddatlar belgilangan.

➤ Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi belgilangan. Mamlakatiiz jinoyat qonunchiligida esa binday shxslar doirasi belgilangan.

Shuningdek, Ozarbayjon Respublikasining Jinoyat kodeksi 78-moddasi uchinchi bandida agar intizomiy qismga jo'natilgan harbiy xizmatchilar jazoni o'tash vaqtida jazoni o'tashga to'sqinlik qiluvchi kasallikka chalinsa sud ularni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari butunlay ozod qilishi yoki o'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishi mumkin.

Belorus Respulikasida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti.
Belorus Respublikasi jinoyat qonunchiligida belgilangan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini tahlil qilamiz. Ushbu institut Belorus Respublikasining Jinoyat kodeksida quyidagicha hal qilingan:

“91-modda. O'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish.

1. Axloq tuzatish ishlari, xizmat bo'yicha cheklash, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish yoki intizomiy qismga jo'natish jazolariga hukm qilingan shaxslarning o'talmagan jazo qismi boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin.
2. Jazoni yengilroq'i bilan almashtirish uchun shaxs tuzalish yo'liga qat'iyon o'tgan bo'lsa, quyidagi hollarda:
 - a) ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun sud tayinlagan jazo muddatining kamida uchdan bir qismini;
 - b) og'ir jinoyati uchun yoki avval ham qasddan sodir etgan jinoyati uchun sud tayinlagan ozodlikdan mahrum qilish jazosining muddatining kamida yarmini;
 - v) o'ta og'ir jinoyati uchun yoki avval jinoyat sodir etgani uchun unga shartli hukm qilish jazosi tayinlangan bo'lib sinov muddati davomida yangi jinoyat sodir etgan jinoyati uchun tayinlangan jazo muddatining kamida uchdan ikki qismini;
3. Axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum qilish jazolarining o'talmagan qismi boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishda qo'llanilayotgan yengilroq jazo shu jazolar uchun belgilangan miqdor doirasida belgilanishi va ularning muddati o'talmagan jazo muddatidan ko'p bo'lishi mumkin emas.
4. Jazoni yengilroq'i bilan almashtirish vaqtida shaxs qo'shimcha jazodan ozod qilinishi mumkin.
5. Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxslar yengilroq jazoning tegishli qismini o'tab bo'lganlaridan keyin ushbu Kodeksning 90-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga binoan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishlari mumkin.
6. Jazosi yengilroq jazo bilan almashtirilgan shaxs jazoning o'talmagan qismi mobaynida qasddan yangi jinoyat sodir etsa yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadigan ehtiyotsizlikdan jinoyat sodir etsa sud unga ushbu Kodeksning 73-moddasida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq jazo tayinlaydi"¹.

Belorus Respublikasi jinoyat qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan farqli ravishda axloq tuzatish ishlari va ozodlikdan mahrum

¹ Уголовный кодекс Республики Беларусь. Статья 91. 9 июля 1999 г.

qilish jazolaridan tashqari xizmat bo'yicha cheklash, qamoq yoki intizomiy qismga jo'natish jazolarining o'talmagan qismi ham boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Shuningdek, bu mamlakat Jinoyat kodeksida jazoning o'talmagan qismi yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi belgilanmagan.

Belorus Respublikasining Jinoyat kodeksining 92-moddasida Ozarbayjon Respublikasining Jinoyat kodeksi 78-moddasi uchunchi bandida ko'rsatilgani kabi agar intizomiy qismga jo'natilgan harbiy xizmatchilar jazoni o'tash vaqtida jazoni o'tashga to'sqinlik qiluvchi kasallikka chalinsa sud ularni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari butunlay ozod qilishi yoki o'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishi mumkinligi belgilangan.

Armaniston Respublikasida jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti.
Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti ***Armaniston Respublikasining*** Jinoyat kodeksida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, u ushbu kodeksning 77-moddasida mustahkamlangan. Aytish joizki, Armaniston Respublikasi jinoyat qonunchiligida aks etgan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish instituti Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan jazoning yengilrog'i bilan almashtirish bilan deyarli bir xil.

“1. Uncha katta bo'lmagan yoki o'rtacha og'irlikdagi jinoyatlari uchun tayinlangan ozodlikdan mahrum qilingan jazoni o'tayotgan shaxsning sud jazoni ijro etish vaqtidagi shaxsning xulq-atvorini va yetkazilgan zarani qoplaganligini hisobga olib tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'talmagan qismini boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishi mumkin. Bunda shaxs qo'shimcha jazodan ham to'liq yoki qisman ozod qilinishi mumkin.

2 O'talmagan jazoni yengilrog'i bilan almashtirish uchun shaxs tayinlangan jazoni kamida uchdan bir qismini amalda o'tagan bo'lishi kerak.

3. Sud o'talmagan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishda ushbu kodeksning 49-moddasida ko'rsatilgan istalgan yengilroq jazo bilan almashtirishi

mumkin, bunda yengilroq jazo ushbu kodeksda har bir jazo uchun belgilab qo'yilgan doirada bo'lishi lozim"¹.

Armaniston Respublikasi jinoyat qonunchiligida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan farqli ravishda faqat ozodlikdan mahrum qilish jazosining o'talmagan qismi ham boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi mumkin. Shuningdek, jazoning o'talmagan qismi boshqa yengilroq jazo bilan almashtirilishi uchun shaxs yetkazilgan zararni ham qoplashi lozim. Bu shart esa mamalakatimiz jinoyat qonunchiligida belgilanmagan. Yana bir farqli tomonlaridan biri bu mamlakat Jinoyat kodeksida jazoning o'talmagan qismi yengilrog'i bilan almashtirilish qo'llanilishi mumkin bo'lmagan shaxslar doirasi belgilanman.

3.2. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutining jinoiy huquqiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati va uni samaradorligini oshirish masalalari

¹ Уголовный кодекс Республики Армения. Статья 77. 29 апреля 3003 г.

Ma'lumki, muayyan shaxsning tarbiyalashning eng muhim bo'lgan usullaridan biri ushbu shaxsni muayyan xulq-atvori uchun rag'batlantirishdir. Aybdorni rag'batlantirish mahkumni tarbiyalash usullaridan biri bo'lgan davlat majburlov choralarini qo'llash bilan bir xil ahamiyatga ega bo'la oladi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish ham mahkumlarni qonunda belgilangan shartlar mavjud bo'lganda uning xulq-atvorini rag'batlantirish vositalaridan biri hisoblanadi.

Shaxsga nisbatan jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning jinoyat qonunchiligini amalga oshirish, jinoyatlarni oldini olishdagi ahamiyatini bir nechta jabhalarda ko'rishimiz mumkin.

1. Jinoyat sodir etgan shaxslarni keyingi harakatlarini ijobiy tomonga o'zgartirishga imkoniyat yaratadi. Har bir shaxs o'zining hayotida turli xil sabablar bilan bir nechta katta va kichik xatolarga yo'l qo'yadi. Afsuski, ushbu xatolarning ayrimlari jinoiy huquqbuzarlik sodir etilishi bilan tugashi mumkin. Bunday hollarda jinoyat qonuning ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarraligi prinsiplariga asosan jinoiy javobgarlikka tortilishi, xususan jinoiy jazolar tayinlanishi mumkin. Bunday shaxslar jinoiy jazoni o'tash vaqtida o'z xatolarini anglab yetib, ulardan kerakli xulosalar chiqaradi va kelgusi hayotida bunday xatolarni takrorlamaslikka harakat qiladi. Shunday vaziyatlarda ular davlat tomonidan yana bir bor imkon ko'rsatilishiga muxtoj bo'ladilar. Davlat esa bu imkoniyatni unga nisbatan tayinlangan axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazolarini ularga nisbatan yengilroq bo'lgan jazo bilan almashtirish tarzida beradi. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish jazosi jarima yoki axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilan shaxs ozodlikda, jamiyat orasida yashash va ishlash, o'z hayotini ijobiy tomonga o'zgartirib, qonunga bo'ysunib yashash imkoniga ega bo'ladi. jinoyat sodir etgan shaxsga insoniylik yuzasidan uni to'g'ri yo'lga boshlash niyatida amalga oshiriladi. Qisqacha qilib, aytganda inson qiynalgan paytda yordamga muxtoj bo'ladi va shu paytda ko'rsatilgan muruvvatni shaxs xech qachon unutmaydi va to'g'ri yo'lga kirishga intilishini kuchaytiradi.

Bizning qonunlarimizda shaxslarni jazolashdan asosiy maqsad ham shaxsni to'g'ri yo'lga boshlash va halol mehnatga o'rgatishdir.

Prezidentiimiz ta'kidlaganidek, "og'ir jazo, ayniqsa, fuqarolarni jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lgan jazolarning jinoyatchilikning oldini olishdagi ahamiyatini oshirib ko'rsatish o'rinsiz ekanligini hayotning o'zi isbotlamoqda. Jinoyatchilikning oldini olish unga qarshi kurashish samaradorligi, jazoning og'irligi va shafqatsizligiga emas, balki birinchi navbatda qonunni buzgan shaxs jazoning muqarrarligini nechog'li anglashiga bog'liq"¹.

2. Mahkumlarni va boshqa hukm qilingan shaxslarni ijobiy harakatlarini rag'batlantirish orqali tarbiyalaydi. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning ushbu harakteri ushbu institutni qo'llashning shartlaridan biri bo'lgan axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lganligi uchun qo'llanilishi natijasida ro'yobga chiqadi. Axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslar ularga yengilroq jazo qo'llanilishi uchun jazoni o'tash davrida ularning o'zlarini ijobiy tomondan ko'rsatishini, namunali xulq-atvorda bo'lishini, jazoni ijro etish talablariga og'ishmay rioya etishini, o'ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan va o'z vaqtida bajarishini, mehnatga halol munosabatda bo'lishini ta'minlaydi. Eng muhimi ularning bu harakatlari jazoning yengilrog'i bilan almashtirilish tarzida rag'batlantirilishi ularning bu xatti-harakatlarni sodir etishga undaydi. Buning uchun ular rag'batlantirilishlarini anglaydilar. Muayyan mahkumni shu asoslarga ko'ra jazosi yengilrog'i bilan almashtirilganligi boshqa mahkumlarni ulardan o'rnak olib o'z xulq-atvorlarini o'zgartirishlariga chaqiradi.

"Jinoyat huquqi nazariyasida rag'batlantiruvchi norma, ularni qonunda mustahkamlash hamda huquqni qo'llash amaliyotida amalga oshirish muammosini o'rganishning dolzarbligi shu bilan bog'liqki, masalaga to'g'ri yondoshilsa ular sodir etilgan jinoyatlarning zararli oqibatlaridan jamiyat ko'radigan ziyonni ancha kamaytirishga, latent(yashirin) jinoyatchilikning kamayishiga, jinoiy ta'qibni

¹ Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. // Xalq so'zi. 2001-yil 30-avgust.

qo‘llash sohasini ancha cheklashga, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashga sarflaydigan moddiy va boshqa resurs mablag‘larini ancha kamaytirishga hamda jinoyatchilikka qarshi kurash siyosatning mazmuni va yo‘nalishiga ta’sir etishga qodir”¹

3. JKning 7-moddasida ko‘rsatilgan insonparvarlik prinsipini qo‘llashda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov bu borada “jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va amalda qo‘llanishini ta’minlashimiz zarur”, deb bejiz ta’kidlamagan edi. Mamlakatimiz Asosiy Qonunida ham, Jinoyat kodeksida ham va deyarli barcha qonun hujjatlarimizda insonparvarlik prinsipi mustahkamlangan. Insonparvarlik bu insonni oliy qadriyat deb tan olish, uni har qanday narsadan ustun qo‘yish, uning manfaatlarini yeng ko‘p darajada inobatga olish, har qanday jarayonni uning manfaatlariga yo‘naltirishda ifodalanadi. Insonparvarlik prinsipi Jinoyat kodeksida quyidagicha o‘z ifodasini topgan. “Jazo va boshqa huquqiy ta’sir choralari jismoniy azob berish yoki inson qadr-qimmatini kamsitish maqsadini ko‘zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda etarli bo‘ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi kerak. Jazolashdan ko‘zlangan maqsadga ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan yengilroq choralarni qo‘llash orqali erishib bo‘lmaydigan taqdirdagina og‘irroq jazo choralari tayinlanishi mumkin”². Yuqorida ta’kidlanganidek, insonparvarlik prinsipi jazodan ozod qilish va uning turlaridan biri hisoblangan jazoni yengilroq institutida ham yaqqol o‘z ifodasini topgan. Jinoyat sodir etgan shaxsni ham eng, avvalo inson deb hisoblash lozim. Unga qo‘llanilgan ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazosidan ko‘zlangan maqsadga erishilgan bo‘lsa, unga boshqa yengilroq jazoni tayinlash lozim bo‘ladi.

¹ R.R.Shakurov. Ijobiy xatti-harakatni jinoiy huquqiy rag‘batlantirishning ijtimoiy shartlanganligi va mohiyati. O‘quv qo‘llanma. IIV akademiyasi. Toshkent-2006. 6-bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. 7-modda. Toshkent. “Adolat” – 2014.

4. Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tufayli davlat tomonidan axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish bilan bog'liq xarajatlar tejaladi. Hozirgi kunga jazoni ijro etish amaliyoti shuni ko'rsatmoqdaki, ayniqsa jazolashning shaxs ozodligini cheklash turlari davlat tomonidan uni ijro etish uchun ko'p moddiy resurslar sarflanishini va ishchi kuchini jalb etishni taqozo etadi. Ozodlikdan mahrum qilinganlarning moddiy-maishiy, ta'lim sanitar-tibbiy ta'minoti davlat hisobidan amalga oshiriladi.

“Ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijobiy yoki salbiy samaradorligini talqin qilish natijasida mahkumga ta'siri yuqori emasligi ta'kidlanadi, lekin shaxsni axloqan tuzatishni, faqat ularga nisbatan tushuntirish ishlari olib borish bilangina amalga oshirib ham bo'lmaydi. Jamiyatning xavfsizligini ta'minlash, jamiyatni jinoyatchilikdan xalos etish uchun ham bu jazoni jazo tizimiga xozircha saqlab turish xozircha zarur xisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy xolatlariga putur etkazgan yoki o'ta xavfli retsidivistlarni ochiqda qoldirish ham to'g'ri bo'lmaydi. Bunday shaxslarga faqat jamiyatdan ajratilgan xollardagina axloqan tuzatish ta'sir choralari qo'llash mumkin. Jazoni ijro etish muassasalarida ham bunday shaxslarni axloqan tuzatish uchun alohida ta'sir choralaridan o'ta samarali foydalanish lozim. Faqat shundagina bunday shaxslarga axloqan ta'sir etish mumkin bo'ladi”¹.

“Jazoning yengilrog'i bilan almashtirish institutining asosi maqsadlari ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: birinchidan, mahkumlarni tuzatish yo'liga o'tishini rag'batlantirish, jazodan ozod bo'lganlarni tezroq tuzalishini ta'minlaydi, yangi jinoyatlar sodir etilishini oldini oladi, ularning jamiyatga moslashishini osonlashtiradi”².

Jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini nazariy va amaliy tadqiq qilish, xorij davlatlarining bu boradagi tajribalarini tahlil qilish asosida

¹ Q.P.Payzullayev. Jinoiy ijroiya huquqi. Darslik. Toshkent - 2006.

² Конкина О.В. Замена неотбытой части наказания более мягким видом наказания. Диссертация. канд. юрид. наук. – Рязань. 1999 г. – С.173

mamlakatimizda jazoni yengilrog'i bilan almashtirish institutini qo'llash borasida bir nechta kamchiliklar bor deb hisoblaymiz.

Rossiya Federatsiyasining jazoni yengilrog'i bilan almashtirish borasidagi huquq normalarini tadqiq qilsak, RFda jazoni yengilrog'i bilan almashtirish shartlari orasida mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida bo'lmagan shart - jinoyat natijasida yetkazilgan zararining qoplanishini ko'rishimiz mumkin. Bizningcha jazoni yengilrog'i bilan almashtirishning bu sharti juda ham muhim shart hisoblanadi. Bu shart jazoning yengilrog'i bilan almashtirishni qo'llash borasida shartlarni muayyan darajada og'irlashtirishi mumkin. Lekin bu shart jabrlanuvchilar va fuqaroviy da'vogarlarining huquq va manfaatlarini yanada kengroq himoya qilinishiga zamin yaratadi.

Ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarini boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishda ushbu jazolarning boshqa yengilroq jazolarning ayrim turlarini aynan qancha muddatiga to'g'ri kelishi borasida ham muayyan huquqiy bo'shliqlar mavjud. Masalan, JKning 44-moddasida eng kam oylik ish haqining o'n olti baravari miqdoridagi jarima ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining bir oyiga to'g'ri kelishi belgilangan bo'lsada, JKning hech bir moddasida ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari muayyan huquqdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklashning qancha muddatiga teng kelishi belgilanmagan. Bu masalni aniq yechimi JKda belgilanmagani uchun amaliyotda ko'pincha axloq tuzatish ishlari muayyan huquqdan mahrum qilish bilan, ozodlikdan mahrum qilish esa intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish bilan ajratilmaydi.

JKda jazolarning har bir turi va ularning qancha miqdorda qo'llanilishi o'z ifodasini topgan. Lekin, jazoni yengilrog'i bilan almashtirish qo'llanilganda bu miqdorlar o'zgarishi, ya'ni kamayishi yoki ko'payishi mumkin. JKda esa har bir jazoning belgilanmagan eng kam va eng ko'p miqdorlaridan kamayib yoki ko'payib ketmasligi belgilangan. Shuning uchun JKning 74-moddasi sud o'talmagan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishda ushbu kodeksda

yengilroq har bir jazo uchun belgilab qo'yilgan doirada tayinlashini tog'risida qoida bilan to'ldirish lozim.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish jazodan ozod qilishning turlaridan biri bo‘lib, jazodan ozod qilishning boshqa turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida mustahkamlanishi mamlakatimiz jinoyat huquqiy siyosatining insonparvarlik tamoyillariga asoslanishini ko‘rsatadi.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish – jazoni o‘tash davrida uni individuallashtirish prinsipini amalga oshirishning mustaqil shakli bo‘lib, mahkum sud tomonidan tayinlangan jazoning o‘talmay qolgan qismini boshqa bir yengilroq jazoga almashtirishdir. Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llash uchun shaxsga tayinlangan jazo axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosi bo‘lishligi, mahkum ushbu jazoni o‘tash tartib qoidalarini bajarishi, mehnatga nisbatan halol munosabatda bo‘lishi, jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish uchun tayinlangan jazoni JKda belgilangan muddatlari o‘talgan bo‘lishi, shaxs esa jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslar doirasiga kirmasligi lozim.

Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish o‘ziga xos xususiyati shundaki, ushbu institut jazodan ozod qilishning boshqa turlaridan farqli ravishda jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish qo‘llanilganda mahkum jinoiy jazodan butunlay ozod etilmaydi, lekin unga tayinlangan axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum etish jazosidan ularga nisbatan boshqa yengilroq jazo bilan almashtirish orqali ozod etiladi. Ya’ni, bunda mahkum unga avval tayinlangan axloq tuzatish ishlari yoki ozodlikdan mahrum etish jazolaridan ozod etiladi, lekin unga ushbu nisbatan ushbu jazolarning o‘talmay qolgan qismi boshqa jinoiy jazo bilan almashtiriladi.

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, aniqlangan kamchiliklar va xorij davlatlarining jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutini qo‘llash tog‘risidagi qonun normalarini tahlil qilish asosida mamlakatimizda jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish institutini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni ko‘rsatdik:

Birinchi, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 74-moddasi ikkinchi qismini quyidagi tahrirda bayon qilish:

“Jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan jazo turlari uchun o‘rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo‘lgan va ***jinoiat natijasida yetkazilgan zararni qoplagan mahkumga*** nisbatan qo‘llanilishi mumkin”.

Bizningcha jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishning bu sharti juda ham muhim shart hisoblanadi. Ushbu shartni belgilanishi Bizningcha jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishning bu sharti juda ham muhim shart hisoblanadi. Suhbu shartni belgilanishi shart jabrlanuvchilar va fuqaroviy da‘vogarlarining huquq va manfaatlarini yanada kengroq himoya qilinishini kafolatlaydi.

Ikkinchi, fikrimizcha O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 74-moddasida ozodlikdan mahrum etish aynan qaysi jazolar bilan almashtirilishi mumkin va uning bir sutkasi yoki bir oyi boshqa jazolarning qancha miqdoriga mos kelishini aniq ko‘rsatish lozim. Shuningdek axloq tuzatishning qancha muddati boshqa jazolarning aynan qancha miqdoriga to‘g‘ri kelishini ushbu moddada aniq ko‘rsatilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu masala yechimlari JKning ayrim moddalarida qaysi jazo boshqa jazoning qancha miqdoriga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilgan bo‘lsada, ayrim jazolarning boshqa jazolarning qancha muddatiga to‘g‘ri kelishi ko‘rsatilmagan. Masalan, JKning 44-moddasida eng kam oylik ish haqining o‘n olti baravari miqdoridagi jarima ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlarining bir oyiga to‘g‘ri kelishi belgilangan bo‘lsada, JKning hech bir moddasida ozodlikdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari muayyan huquqdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash, ozodlikni cheklashning qancha muddatiga teng kelishi belgilanmagan. Bu masalni aniq yechimi JKda belgilanmagani uchun amaliyotda ko‘pincha axloq tuzatish ishlari muayyan huquqdan mahrum qilish bilan, ozodlikdan mahrum qilish esa intizomiy qismga jo‘natish, xizmat bo‘yicha cheklash, muayyan huquqdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash bilan almashtirilmaydi.

Uchinchi, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 74-moddasinni quyidagi qism bilan to‘ldirish:

“Sud o‘talmagan jazoni boshqa yengilroq jazo bilan almashtirishda ushbu kodeksda belgilangan har bir yengilroq jazo uchun belgilab qo‘yilgan doirada bo‘lishi lozim”. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish axloq tuzatish ishlari bilan almashtirilganda yengilroq jazo tariqasida tayinlangan axloq tuzatish ishlarining muddati olti oydan uch yilgacha muddatga belgilanishi lozim.

To‘rtinchi, yengilroq jazo bilan almashtiriladigan jazolar axloq tuzatish ishlari, ozodlikdan mahrum qilish yengilroq jazo bilan almashtiriladigan jazolar qatoriga xizmat bo‘yicha cheklash jazosini ham qo‘shish lozim deb o‘ylaymiz. Chunki ushbu jazo muddatli harbiy xizmatchilarga qo‘llanib axloq tuzatish ishlariga muayyan belgilariga ko‘ra o‘xshashdir. Bizningcha ushbu jazoga yengilroq jazo sifatida jarimani almashtirish mumkin.

Yuqoridagi bizni jazoni yengilrog‘i bilan almashtirish yuzasidan ko‘rsatilgan takliflarimiz jinoyat qonunchiligiga kiritilsa amaliyotdagi jazoni yengilrog‘i bilan almashtirishni qo‘llash borasidagi muammolarni oldini oladi va jinoyat qonunchiligimiz yanada mukammal bo‘lishiga, shaxsning huquq va erkinliklari kengroq ta‘minlanishiga, insonparvarlik tamoyillariga rioya etilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Rahbariy adabiyotlar:

1. I.A. Karimov. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10.- T.,2003.-B.33.
2. I.A.Karimov. Adolat-qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustdagi VI sessiyasida "Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak" mavzusida qilingan ma'ruza. 10-tom. – T.: "O'zbekiston", 2002. -26-50-b.
3. I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi: O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010-yil 12-noyabr. –Toshkent: Ўзбекистон, 2010. – 56 b.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2014
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. Toshkent. "Adolat" – 2015. 6-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksi. Toshkent. "Adolat" – 2014. 536-modda.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-Ijroiya Kodeksi. Toshkent. "Adolat" – 2014. 164-modda.
5. O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuni. 2001-yil 29-avgust.//Xalq so'zi, 2001 yil 30 avgust.

6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida” Qarori. 2006-yil 3-fevral. 57-bandi.
7. “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalari” O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan 2012-yil 29-dekabrda 174-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.
8. “Axloq tuzatish ishlari, muayyan huquqdan mahrum qilish tariqasidagi jazolarni ijro etish va shartli hukm qilinganlarni nazorat qilish tartibiga oid yo‘riqnoma” O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan 2001-yil 17-noyabrda 298-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:

1. M.H.Rustambaev. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. 2-tom. Umumiy qism. Darslik. “ILM ZIYO‘” nashriyot uyi. Toshkent – 2011. 12, 203, 209-210, 213-betlar.
2. Mualliflar jamoasi. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi akademiyasi. Toshkent – 2012. 382-bet.
3. R.R.Shakurov. Ijobiy xatti-harakatni jinoiy huquqiy rag‘batlantirishning ijtimoiy shartlanganligi va mohiyati. O‘quv qo‘llanma. IIV akademiyasi. Toshkent-2006. 13-bet.
4. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi. Umumiy qism. Darslik. –Toshkent: YAngi asr avlodi, 2005. 37-b.
5. Пулатов Ю.С. О гуманизации условного осуждения в уголовном и уголовно-исполнительном законодательстве. // Хукук-Право-Law. -2002.- №2.-С. 81-83.
6. Q.P.Payzullayev. Jinoyat-ijroiya huquqi. Darslik. Toshkent-2006. 228-bet.

Ilmiy adabiyotlar va maqolalar:

1. Muqimova M.Z. Sud-huquq islohotlari va jinoyat qonunini liberallashtirish masalalari. Monografiya. Samarqand: SamDU. 2009. 5, 9-betlar.
2. G‘K.Boirov. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini liberallashtirishning asisi sifatida insonparvarlik prinsipining amalga oshirilishi. Dissertatsiya. Toshkent-2006.
3. Конкина О.В. Замена неотбытой части наказания более мягким видом наказания. Диссертация. канд. юрид. наук. – Рязань. 1999 г. – С.173.

Internet saytlari:

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.ziyonet.uz>
3. <http://www.norma.uz>